2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 263 (1324), 2024-yil 27-dekabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

SAMMITDA KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARIDA QO‘SHMA DASTURLARNI AMALGA OSHIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida kuzatuvchi maqomida ishtirok etdi.

Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan raisligida (onlayn formatda) o‘tgan bu galgi uchrashuvda Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, shuningdek, YOII huzuridagi kuzatuvchi mamlakat — Eron Islom Respublikasi sanoat, konlar va savdo vaziri Said Muhammad Otabak ham qatnashdi. Kuba Respublikasi Prezidenti Migel Dias-Kanel ishtirokchilarga videomurojaat yo‘lladi.

Kun tartibidan ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida qo‘shma dasturlarni amalga oshirish masalalari o‘rin oldi.

O‘zbekiston Prezidenti so‘zining avvalida so‘nggi yillarda mamlakatimiz kuzatuvchi sifatida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan 22 ta yo‘nalishda samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yganini ta’kidladi.

2024-yilda O‘zbekistonning ittifoq mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 11 foizga oshdi. Oktyabr oyida Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan savdo, sanoat, moliya, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa sohalarda 40 ga yaqin chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan Yangi uch yillik hamkorlik rejasi qabul qilindi.

O‘zbekiston, shuningdek, YOIIning savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijoratni joriy etish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi qator tarmoq dasturlarida faol ishtirok etmoqda.

Kelgusi yil mart oyida qo‘shma Ishchi guruhining to‘rtinchi yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Davlatimiz rahbari Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga alohida to‘xtaldi. Xususan, Prezidentimiz o‘zaro savdodagi savdo to‘siqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etishga chaqirdi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston va YOII davlatlari o‘rtasidagi savdoda tarif va notarif cheklovlarni qo‘llamaslik masalasini ekspertlar darajasida ishlab chiqish taklif etildi.

Amaliy harakatlar rejasini qabul qilgan holda, yaqin kelajakda texnik jihatdan tartibga solish tizimlarini yaqinlashtirish bo‘yicha maslahatlashuvlar o‘tkazishga tayyorlik bildirildi.

O‘zbekiston yetakchisi tadbir yakunida imzolanayotgan Yagona bojxona tranziti tizimi to‘g‘risidagi bitimda mamlakatimizning ishtirok etishi, shuningdek, bojxona chegaralari orqali olib o‘tilayotgan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risida elektron ma’lumotlar almashinuvini tez fursatda joriy etish tarafdori ekanini ta’kidladi.

Sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va vositalariga qo‘shilishdan manfaatdorlik bildirildi.

— Qo‘shma loyihalarni ilgari surish uchun ishonchli moliyaviy manbalarni shakllantirish maqsadida kelgusi yil boshida tartib-taomillarni yakunlab, Yevroosiyo taraqqiyot bankiga a’zo bo‘lishni rejalashtirmoqdamiz, — dedi Prezidentimiz.

Biznesni yanada faol jalb qilish va ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida YOII Ishbilarmonlar kengashining yig‘ilishini 2025-yil aprel oyida Toshkent shahrida o‘tkazish taklif etildi.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasida tizimli hamkorlik qilish muhimligi qayd etildi. Mamlakatimizni YOIIning integratsiyalashgan axborot tizimiga va “Raqamli ittifoq” loyihasiga ulash tashabbusi ilgari surildi.

Agrar sohada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zaro yetkazib berishni yengillashtirish, innovatsion agrosanoat loyihalarini amalga oshirish va ilmiy ishlanmalarni joriy etishga qaratilgan kooperatsiya dasturini tayyorlash taklif etildi.

Sayyohlik almashinuvlarini rag‘batlantirish maqsadida davlatimiz rahbari YOII davlatlari fuqarolariga O‘zbekistonga ichki hujjatlar bilan kirish imkonini beruvchi tartibni joriy etishga tayyorligini bildirdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Sankt-Peterburg shahriga amaliy tashrifi yakunlandi.

“Pulkovo” xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Sankt-Peterburg shahri gubernatori Aleksandr Beglov va boshqa rasmiy shaxslar kuzatib qo‘ydi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY YEVROOSIYO IQTISODIY KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli hamkasblar!

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

Global va mintaqaviy tahdidlar, iqtisodiyotdagi beqarorlik va jahon bozorlaridagi o‘zgaruvchanlikning kuchayishi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi sheriklikni kengaytirishning yangi yo‘llarini yanada faol izlashni taqozo etmoqda.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston kuzatuvchi davlat sifatida YOII bilan 22 yo‘nalishda samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Joriy yilda Ittifoq mamlakatlari bilan tovar ayirboshlashimiz 11 foiz o‘sdi.

Oktyabr oyida Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan Yangi uch yillik rejani qabul qildik, unga savdo, sanoat, moliya sektori, agromajmua, transport va boshqa sohalarda qirqtaga yaqin aniq chora-tadbirlar kiritildi.

Shuningdek, biz savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijoratni joriy etish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi tarmoq dasturlarida faol ishtirok etish niyatidamiz.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Hukumati qo‘shma Ishchi guruhining navbatdagi, to‘rtinchi yig‘ilishiga puxta tayyorgarlik ko‘rmoqda. Ushbu uchrashuvni kelgusi yil mart oyida O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar!

O‘zbekiston bilan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha qarashlarimizni qisqacha bayon etmoqchiman.

Birinchi. Bu savdo to‘siqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

O‘zbekiston va YOII o‘rtasida savdoda tarif va notarif cheklovlarni o‘zaro qo‘llamaslik to‘g‘risidagi bitimni imzolash masalasini ekspertlar darajasida ishlab chiqishni taklif etamiz.

Yaqin vaqt ichida amaliy harakatlar rejasini qabul qilgan holda texnik jihatdan tartibga solish tizimlarini yaqinlashtirish bo‘yicha maslahatlashuvlar o‘tkazishga tayyormiz.

Ikkinchi. O‘zbekistonning imzolanayotgan Yagona bojxona tranziti tizimi to‘g‘risidagi bitimda ishtirok etishi ham savdo amaliyotlarini kengaytirishga xizmat qiladi, deb hisoblayman.

Mamlakatlarimizning bojxona chegaralari orqali olib o‘tilayotgan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni elektron almashish bo‘yicha bitimlarni kelishishni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi. Birlashma doirasida boshlangan sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va vositalariga qo‘shilishdan manfaatdormiz.

Bundan tashqari, qo‘shma loyihalarni ilgari surish uchun ishonchli moliyaviy manbalarni shakllantirish maqsadida kelgusi yil boshida tartib-taomillarni yakunlab, Yevroosiyo taraqqiyot bankiga a’zo bo‘lishni rejalashtirmoqdamiz.

To‘rtinchi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasida tizimli hamkorlikni kuchaytirish niyatidamiz.

O‘zbekistonni YOIIning integratsiyalashgan axborot tizimiga va “Raqamli ittifoq” loyihasiga ulash masalalarini birgalikda ishlab chiqishga tayyormiz.

Beshinchi. Agrar sohada kooperatsiya dasturini tayyorlash tarafdorimiz. Gap qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bozorlarimizga o‘zaro kirib borishini yengillashtirish, innovatsion agrosanoat loyihalarini amalga oshirish, ilg‘or ilmiy ishlanmalarni joriy etish chora-tadbirlari haqida bormoqda.

Oltinchi. Sayyohlik almashinuvlarini rag‘batlantirish maqsadida Birlashma davlatlari fuqarolariga mamlakatimizga ichki hujjatlar bilan kirish imkonini beruvchi tartibni joriy etish niyatidamiz.

Hurmatli hamkasblar!

O‘zbekiston mavjud salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida YOII bo‘yicha sheriklar bilan yaqin va samarali hamkorlikni rivojlantirish tarafdori.

Fursatdan foydalanib, hurmatli Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoni tashkilotga raislik Belarusga o‘tishi munosabati bilan tabriklayman va unga muvaffaqiyatlar tilayman.

Barchangizni, qardosh xalqlarimizni kirib kelayotgan Yangi yil bilan yana bir bor samimiy tabriklab, farovonlik va ravnaq tilayman.

E’tiboringiz uchun tashakkur.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI OZARBAYJON PREZIDENTIGA HAMDARDLIK BILDIRDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevga Oqtou shahri yaqinida yo‘lovchi samolyoti halokati oqibatida ko‘plab insonlar qurbon bo‘lgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildirdi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon yetakchisi orqali halok bo‘lganlarning oila a’zolari va yaqinlariga samimiy hamdardlik va dalda so‘zlarini yo‘lladi, jabrlanganlarning barchasi tez fursatda sog‘ayib ketishini tiladi.

O‘zA

KAMBAG‘ALLIK ORTGA CHEKINMOQDA

BU — BIZ UCHUN ENG MUHIM KO‘RSATKICH

Yurtimizda “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida aholi farovonligini oshirish, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizim yaratildi. Uning doirasida ishsizlarni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorligini boshlashga ko‘maklashish, moddiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish borasida ulkan ishlar bajarildi. Bugun ham bu sa’y-harakatlar izchil davom ettirilmoqda.

Davomi 2-betda

EKOFAOL YURT FUQAROSI

MAQOMIGA MUNOSIBLIK MAS’ULIYATI

Zarrabin

O‘tib borayotgan 2024-yil yurtimizda ekologik masalalar yechimiga qaratilgan katta o‘zgarishlar, xalqaro darajadagi tashabbuslarga boy bo‘ldi. Buning mantiqiy davomi sifatida 2025-yil Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilindi. Xo‘sh, nega yangi O‘zbekiston ekologik masalalar yechimiga qaratilgan tashabbuslarni ilgari suryapti? Bunday tashabbuslar, ekologik islohotlar zamirida qanday hayotiy haqiqatlar bor? “Yashil” iqtisodiyot nima, atrof-muhitni asrash deganda nimalarni tushunishimiz kerak?

Shu kabi savollarga “Zarrabin” orqali javob topish uchun O‘zbekiston Ekologik partiyasi raisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston ekologik partiyasining fraksiyasi rahbari Abdushukur HAMZAYEVga murojaat qildik.

Davomi 3-betda

2024-yil 27-dekabr, 263-son

Ijtimoiy yuksalishdan barqaror iqtisodiyot sari dadil ildamlar ekanmiz, albatta, ko‘zlangan maqsadga erishish oson bo‘lmaydi. Buning uchun barchamiz yelkadosh bo‘lib, davlatimiz rahbarining har bir ko‘rsatmasiga qat’iy amal qilgan holda ishlasak, yurtimiz yanada obod va farovon bo‘laveradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

2024-YIL: ISLOHOTLAR SARHISOBI

KAMBAG‘ALLIK ORTGA CHEKINMOQDA

BU — BIZ UCHUN ENG MUHIM KO‘RSATKICH

Ilgari biror mahalla guzari oldidan o‘tsak, kamida 10-15 kishi bekorchilikdan shunchaki vaqt o‘tkazish uchun gurunglashib o‘tirganiga guvoh bo‘lardik. Mabodo shu paytda ulardan birortasini gapga solsangiz, naq baloga qolardingiz. Sababi odamlar faqat nolishu yetishmovchilikdan nariga o‘tmasdi. Asta surishtirib ko‘rsangiz, o‘n sotix tomorqasini ajriq bosib yotgan bo‘lardi.

Boshlanishi 1-betda

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har bir hududda kambag‘allikni qisqartirishga katta e’tibor qaratilyapti. Aholining keng qatlami qamrab olinib, ishsizlik bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda. Ishlatilmay kelinayotgan tomorqalardan unumli foydalanish umummilliy harakati boshlandi. O‘zini o‘zi band qilish, yakka va oilaviy tadbirkorlik rivojlanyapti. Imtiyozli kredit ajratilib, yangi ish o‘rinlari ochilmoqda. Bundan tashqari, dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik yo‘nalishlarida ham keng qulayliklar yaratilmoqda.

Azaldan Qashqadaryo vohasi ahlining asosiy qismi shaxsiy tomorqasiga ega bo‘lib kelgan. Bir qarich yerni mo‘may daromad manbaiga aylantirganlar ham ko‘p. Ammo hovlisidagi bor imkoniyatdan hamma to‘laqonli foydalanavermaydi yoki buning uddasidan chiqolmaydi. Aslida, buning uchun katta mablag‘ zarur emas. Faqat astoydil mehnat qilinsa bo‘lgani. Buni hozir odamlar yaxshi tushunib yetdi. O‘zi tashabbus ko‘rsatib, ikki sotix yerdan ham daromad olish mumkinligini anglamoqda.

Ilgari biror mahalla guzari oldidan o‘tsak, kamida 10-15 kishi bekorchilikdan shunchaki vaqt o‘tkazish uchun gurunglashib o‘tirganiga guvoh bo‘lardik. Mabodo shu paytda ulardan birortasini gapga solsangiz, naq baloga qolardingiz. Sababi odamlar faqat nolishu yetishmovchilikdan nariga o‘tmasdi. Asta surishtirib ko‘rsangiz, o‘n sotix tomorqasini ajriq bosib yotgan bo‘lardi. Hozir bunday holatga ko‘zingiz tushmaydi. Qaysi xonadonga kirmang, bo‘lakcha fayz, shukuhga guvoh bo‘lasiz. Odamlarning turmushi yaxshilanayotgani ularning yuzida, so‘zida namoyon bo‘lmoqda. Ro‘zg‘orlarga baraka kirib, aholining roziligi ortib bormoqda.

Bugun viloyatimizda 3 million 600 mingdan ziyod aholi yashaydi. Shundan 1 million 847 mingi mehnatga layoqatli. Ish bilan band fuqarolar 1 million 231 ming kishi. Jumladan, 498 mingi rasmiy, 590 mingi norasmiy sektorda ish bilan mashg‘ul. 83 ming kishini ishga joylashtirish ehtiyoji mavjud bo‘lib, ishsizlik darajasi 6,3 foizni tashkil etmoqda.

Murotjon AZIMOV,
Qashqadaryo viloyati hokimi

> **Hokim yordamchilarining tavsiyanomasi asosida 32 mingdan ziyod fuqaroga 598,5 milliard so‘mlik kredit ajratildi. Asosan, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi 20 ming 844 loyiha uchun 438,1 milliard so‘m taqdim etildi. Jumladan, issiqxonachilik bo‘yicha 592 loyihaga 15,3 milliard so‘m, meva-sabzavot va bog‘dorchilik bo‘yicha 3181 loyihaga 39,9 milliard so‘m, chorvachilik bo‘yicha 11 ming 910 loyihaga 273,1 milliard so‘m, parrandachilik bo‘yicha 1924 loyihaga 21 milliard so‘m, baliqchilik va asalarichilik bo‘yicha 507 loyihaga 13,7 milliard so‘m berildi. Shuningdek, zarur asbob-uskuna sotib olish uchun 2659 loyihaga 74,7 milliard so‘m yo‘naltirildi.**

Joriy yilning o‘tgan davrida viloyatda faoliyat yuritayotgan 828 hokim yordamchisi tomonidan 2024-yil uchun tasdiqlangan maqsadli ko‘rsatkichlar asosida sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, 418 ming 884 fuqaroning daromadli mehnat bilan bandligi ta’minlandi. Ulardan 200 ga yaqini doimiy va mavsumiy ishga joylashtirildi, 202 ming 795 nafari o‘zini o‘zi band qilgan sifatida rasmiylashtirildi. 12 ming 647 kishi yakka tartibdagi tadbirkorlikka, 7498 yurtdoshimiz haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi. Yana 3748 ishsiz hunarmandlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, 7141 odam ijara asosida yer ajratish hisobiga ish bilan band qilindi.

Hokim yordamchilarining tavsiyanomasi asosida 32 mingdan ziyod fuqaroga 598,5 milliard so‘mlik kredit ajratildi. Asosan, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi 20 ming 844 loyiha uchun 438,1 milliard so‘m taqdim etildi. Jumladan, issiqxonachilik bo‘yicha 592 loyihaga 15,3 milliard so‘m, meva-sabzavot va bog‘dorchilik bo‘yicha 3181 loyihaga 39,9 milliard so‘m, chorvachilik bo‘yicha 11 ming 910 loyihaga 273,1 milliardso‘m, parrandachilik bo‘yicha 1924 loyihaga 21 milliard so‘m, baliqchilik va asalarichilik bo‘yicha 507 loyihaga 13,7 milliard so‘m berildi. Shuningdek, zarur asbob-uskuna sotib olish uchun 2659 loyihaga 74,7 milliard so‘m yo‘naltirildi.

Bundan tashqari, xizmatlar sohasiga doir 3793 loyihaga 86 milliard so‘m, hunarmandlik bo‘yicha 5695 loyihaga 51 milliard so‘m, ishlab chiqarishga aloqador 1527 ta loyihaga 23 milliard so‘m hamda boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha 151 loyihaga 1 milliard so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. 20 mingdan ziyod fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitildi. Jumladan, bandlik tizimidagi monomarkaz va ta’lim muassasalarida 10 ming 598, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida 568, nodavlat ta’lim muassasalarida 1605, Savdo-sanoat palatasida 3039 hamda xotin-qizlarni tadbirkorlikka tayyorlash markazlarida 4532 kishi kasb-hunar va tadbirkorlik bo‘yicha o‘qib, sertifikat oldi.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish, mehnat qurollari va uskunalar bilan ta’minlash bo‘yicha 6 mingga yaqin fuqaroga 22 milliard so‘mlik subsidiya ajratildi. Jumladan, yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish uchun 104 fuqaroga 954,5 million so‘m, sug‘orish vositalari xarid qilish uchun 49 fuqaroga 101,2 million so‘m, zarur uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun 4649 nafar fuqaroga 16,5 milliard so‘m va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha 1188 fuqaroga 4,3 milliard so‘m sarflandi. Joriy yilning o‘tgan davrida 4241 ta yuridik va 13 ming 98 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, aholini barqaror daromad bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2021-yilda 60 foizdan ortiq aholi ixtisoslashuvi bo‘yicha band bo‘lgan mahallalar soni 23 tani tashkil etgan. Bugun esa aynan hokim yordamchisi instituti joriy qilingani tufayli ushbu ko‘rsatkich 263 taga yetdi.

Bundan tashqari, joriy yilda 7460 gektar yer ajratilishi rejalashtirilgandi. Shu yilning o‘tgan davrida 5271 gektar maydon ijara asosida uzoq muddatga dehqon xo‘jaliklari uchun ajratib berildi. Hokim yordamchilari va tijorat banklari tomonidan har bir mahallada kichik ishlab chiqarish, xizmat va savdo obyektlarini tashkil etish uchun umumiy qiymati 1 trillion 470 milliard so‘mlik 25 ming 582 ta mikroloyiha ishga tushirildi hamda 43 mingdan ortiq ish o‘rni ochildi.

Joriy yil davomida 212 ming 500 kishini biznesga jalb qilish rejalashtirilgan edi. Hozirgi hisob-kitoblarimizga ko‘ra, 193 ming 955 nafari ishbilarmonlik muhitiga olib kirildi. Shundan 165 ming 743 nafari o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha ijtimoiy soliq to‘laganlar, 13 ming 98 nafari yakka tartibdagi tadbirkorlar, 4241 nafari tadbirkorlik subyekti tashkil qilganlar va 10 ming 873 nafari dehqon xo‘jaligi sifatida ro‘yxatdan o‘tganlardir.

Bu yil avvalida 103 mingta kambag‘al oila bo‘lib, kambag‘allik darajasi 11,5 foizni tashkil etgan. Mazkur amaliy sa’y-harakatlar tufayli 1-oktabr holatiga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 8,8 foizga tushdi.

Ishimiz shu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Hali oldimizda ulkan maqsadlar turibdi. Jumladan, Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil uchun qator chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqdik. Bunda, asosan, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun 26 ming fuqaroga 616 milliard so‘mlik imtiyozli kredit ajratib beriladi. Shuningdek, barqaror daromad manbaini yaratish uchun 4141 kishiga 25,2 milliard so‘mlik subsidiya ajratiladi. 21,5 ming fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalari bo‘yicha o‘qitilib, bandligi ta’minlanadi. Aholi daromadini oshirish uchun dehqon xo‘jaliklari tashkil qilish maqsadida paxta va g‘alladan qisqartirilgan 5850 gektar yer 11 ming 700 kishiga bo‘lib beriladi. Mahallalarda 33 mingdan ortiq mikroloyiha amalga oshirilib, 66 ming kishining bandligi ta’minlanadi. Yangidan 6820 ta yuridik maqomdagi va 8395 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi.

2025-yilda 21 ming 797 ta oilani kambag‘allikdan chiqarishga bel bog‘laganmiz. Buning uchun barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish orqali 83 ming 795 kishi ish bilan ta’minlanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish natijasida yil yakuniga qadar kambag‘allik ko‘rsatkichini 6,4, ishsizlik darajasini esa 5,4 foizgacha pasaytirish rejalashtirilgan.

Ijtimoiy yuksalishdan barqaror iqtisodiyot sari dadil ildamlar ekanmiz, albatta, ko‘zlangan maqsadga erishish oson bo‘lmaydi. Buning uchun barchamiz yelkadosh bo‘lib, davlatimiz rahbarining har bir ko‘rsatmasiga qat’iy amal qilgan holda ishlasak, yurtimiz yanada obod va farovon bo‘laveradi. Eng muhimi, odamlarning turmush tarzi yaxshilanib, hayotida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu qo‘yayotgan qadamimiz to‘g‘ri ekanini anglatadi. Yangi yilda ulkan yutuqlar tomon intilamiz hamda kambag‘allikdan farovon hayot sari dadil qadam tashlaymiz.

Oziq-ovqat xavfsizligi

NATIJA KUTILGANIDAN ZIYODA

Yer yuzida iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik, urushlar sabab oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish qiyinlashyapti. Bundan tashqari, aholi soni oshgani sari oziq-ovqat mahsulotlariga talab ham ortib bormoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, har yili dunyo aholisi o‘rtacha 80 milliondan ziyodroqqa ko‘paymoqda. 2050-yilga kelib, aholi soni 10 milliard kishiga yaqinlashishi taxmin qilinmoqda.

Albatta, shuncha aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash jahon mamlakatlari oldida turgan eng muhim vazifaga aylanmoqda. BMT ekspertlari xulosasiga ko‘ra, ayni vaqtda dunyo bo‘yicha bir milliardga yaqin kishi ocharchilik tahdidi ostida yashamoqda. Shu sabab dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligining alohida o‘rni bor. Shuning uchun yurtimizda qishloq xo‘jaligi sohasini isloh qilish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, aholining arzon va sifatli mahsulotlarga ehtiyojini qondirish barobarida meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali jahonda oziq-ovqat ta’minotiga ham salmoqli hissa qo‘shishga alohida e’tibor berilmoqda.

Misol uchun, yaqinda davlatimiz rahbari raisligida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishni ko‘paytirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida respublika bo‘yicha oziq-ovqat eksporti o‘tgan yildagiga nisbatan 370 million dollar, hozirgacha 2 milliard dollardan oshgani qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkichda Jizzax viloyatining ham alohida o‘rni bor. Jumladan, mazkur yig‘ilishda Prezidentimiz Jizzax viloyatining oziq-ovqat eksporti o‘tgan yildagidan 2,2 barobar oshganini ta’kidladi.

— Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasini isloh qilishga, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar samarasini bermoqda, — deydi Jizzax viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Ilhom Turg‘unboyev. — Joriy yilda viloyat bo‘yicha 200 ming tonnadan ortiq bug‘doy, 100 ming tonna meva va rezavor, 490 ming tonna sabzavot, 310 ming tonna poliz, 110 ming tonna kartoshka va 35 ming tonna moyli ekin yetishtirildi hamda 245 ming tonna go‘sht, 720 ming tonna sut, 435 million dona tuxum va 16 ming tonna baliq mahsulotlari ishlab chiqarildi. Keyingi yillarda viloyatimizda bog‘dorchilik va uzumchilik sohasida ham katta o‘zgarishlar kuzatildi. Birgina misol, 2017-2018-yillarda viloyatda bog‘ maydonlari bor-yo‘g‘i 5 ming gektar, keyingi yillarda 27,5 ming gektarda yangi bog‘lar tashkil etilib, 32,5 ming gektarga yetkazildi. Bundan 5-6-yil avval 2 ming gektar uzumzor keyingi yillarda 14 ming gektar ko‘payib, 16 ming gektarga yetkazildi. Kelgusi yilda ham bu ishlar davom ettirilib, 1800 gektarda bog‘ va 1700 gektarda yangi uzumzorlar barpo qilinadi. Bu borada davlatimiz rahbarining Jizzax viloyatining to‘rtta tumanida bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish bo‘yicha topshirig‘i asosida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar qo‘l kelmoqda. Jumladan, Zarbdor tumanining “Toza urug‘” va “Yangiobod” MFYlari hududida 105 gektar maydonda uzumchilik plantatsiyasi tashkil etilmoqda. Loyihaning dastlabki bosqichida 250 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Birinchi navbatda ishsiz yoshlar, xorijdan qaytib kelgan yurtdoshlarimiz, ehtiyojmand oila vakillari ish bilan ta’minlanadi. Ushbu plantatsiya hosilga kirgach, aholi daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashi barobarida hudud eksport salohiyatini oshirish uchun ham qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xuddi shunday, Forish tumanining Egizbuloq va Oqtom mahallalarida joylashgan yuz gektarda yirik uzum plantatsiyasi barpo etilmoqda.

— Forish tumanining tabiiy yer va iqlim sharoiti uzum yetishtirishga moslashgan. Bu yerda yetishtirilayotgan husayni, toifi, qora kishmish uzumlari betakror ta’mi va mazasi, qora kishmishdan tayyorlangan mayiz esa shirinligi, tabiiyligi bilan nom chiqargan hamda boshqa joylarda yetishtirilgan uzumlar va mayizlardan ajralib turadi, — deydi “Balandosmon garden” MCHJ bosh agronomi Namoz Qambarov. — Shuning uchun auksion orqali 100 gektar yer olib, uzumzor qilyapmiz. Bugungacha 50 gektarni tayyor holatga keltirib, toklarni ekib bo‘ldik. Uch yil deganda hosilga kiradi. Beshinchi yildan eksportga tayyor bo‘ladi. Shundan bir tupdan o‘rtacha 15 kilodan uzum olsak, to‘rt kilodan mayiz chiqadi. Bir gektaridan bir-bir yarim tonna mayiz olamiz. Shuningdek, mayiz quritadigan minisexlar qurib, xorijga eksport qilish niyatimiz bor. Forish uzumi va mayizining bozori chaqqon, xaridorgir. Shu sabab ushbu loyihaga hech ikkilanmasdan qo‘l urdik.

Loyihaning yana bir iqtisodiy ahamiyati “Kambag‘allikdan farovonlik sari” davlat dasturi bilan hamohangligidir. Ushbu tokzorlar to‘liq hosilga kirgach, hududdagi ishsiz yoshlar, ehtiyojmand va kambag‘al oila vakillariga ijara asosida bo‘lib berilib, ular uchun doimiy ish o‘rinlari, istiqbolli daromad manbalari yaratiladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, ushbu chora-tadbirlar natijasida hududdagi 200 kishini kambag‘allikdan chiqarish hamda har bir oilaning yillik daromadini kamida 70 million so‘mga yetkazish maqsad qilingan.

— Xorijda qurilishda ishlardim, har yili bir marta, ba’zan ikki yilda bir uyimga kelardim, — deydi Egizbuloq mahallasida yashovchi Abror Tursunmurodov. — Vatan, oila sog‘inchi qiynardi. Uzoq o‘lkalarda yashab, qaniydi, yurtimizda, oilam bag‘rida yashab, ishlasam deb orzu qilardim. Forishning bepoyon yerlarini obod qilish orqali iqtisodiy daromad topish barobarida minglab ish o‘rinlari yaratish mumkinligi haqida o‘ylardim. Mana, orzularim ushalmoqda. Qarang, bekor yotgan dalalarda bog‘, uzumzorlar qilinmoqda. Yana uch-to‘rt yildan keyin ular hosilga kirsa, egasiga ham, davlatga ham, shu atrofda yashaydigan aholiga ham daromad manbai bo‘ladi. Mana, hozirning o‘zida ishiga qarab, uch-to‘rt million so‘m oylik olayotganlar bor. Albatta, hozir ekkan ko‘chatlarimiz hosilga kirsa, daromadimiz ham oshib boradi. Yana bir ahamiyatli jihati, mahallamizdagi kam ta’minlangan, ishsiz aholiga yarim sotix, bir gektardan tayyor ekilgan yerlar ijaraga berilmoqda. Bu ham uzoq yillardan beri uzumchilik bilan shug‘ullanadigan mahalladoshlarimiz uchun ayni muddao bo‘lmoqda.

Jizzax viloyatida yaqin yillargacha suv tanqisligi sabab ikkinchi ekinga ruxsat yo‘q edi. Faqatgina qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli, do‘stona munosabat o‘rnatilib, boshqa masalalar qatorida suv masalasida ham muhim kelishuvlarga erishilganidan so‘ng, mana, necha yillardan beri g‘alladan bo‘shagan minglab gektar yerga sabzavot, poliz va dukkakli ekinlar ekilmoqda. Bu ham mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Birgina Arnasoy tumanida joriy yil g‘alladan bo‘shagan 7847 gektar maydonning 159 gektariga sabzavot, 2233 gektariga poliz, 100 gektariga kartoshka, 450 gektar moyli, 3995 gektar dukkakli, 910 gektar ozuqa ekinlari ekilib, yuqori hosil olishga erishildi. Jumladan, “Bir hudud — bir mahsulot” tamoyili asosida Arnasoy tumani G‘afur G‘ulom mahallasining 20 nafar yoshiga “Oltin vodiy” suv iste’molchilari uyushmasidan 10 gektar yer ajratilib, tajriba sifatida takroriy ekin uchun brokkoli karami yetishtirish yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlar tajribali dehqonlar ko‘magida brokkoli karamining gektaridan 12 tonnagacha hosil olishga erishdi. Olingan hosil esa joyida korporatsiya tashkil etgan tadbirkor tomonidan sotib olinib, Rossiyaga eksport qilindi.

— Biz, yoshlarga berilayotgan e’tibordan xursandmiz, — deydi G‘afur G‘ulom mahallasida yashovchi Sherzod Yangiboyev. — Mahallamizdagi yoshlar yetakchisi takroriy ekin uchun brokkoli karami yetishtirishga yoshlarga yer, boshlang‘ich xarajatlari uchun imtiyozli kredit beriladi, dedi. O‘sha paytda bu sinov tariqasida ekilayotgani uchun ko‘pchilik ikkilandi. Men tavakkalchilikka moyilligim sababli bir gektar yerga brokkoli ekdim. Albatta, uni parvarishlashda bizga mutaxassislar maslahat berdi. Natija esa o‘ylaganimizdan ziyoda bo‘ldi, men gektaridan qariyb 10 tonnagacha, ba’zilar 12 tonnagacha hosil oldi. Hosilni dalaning o‘zidan kilosini 9000 so‘mdan tadbirkorlar olib ketdi. O‘rta hisobda gektaridan 90 million so‘mdan daromad qildik, xarajatlarini chiqarsak ham yaxshigina sof daromadli bo‘ldik. Daromadimizni ko‘rib, boshqalar ham kelasi yildan ekmoqchi bo‘lyapti. Axir O‘zbekiston sharoitida to‘rt oy ichida shuncha daromad topish yaxshi natija, endi xorijga chiqib ishlashga hojat yo‘q.

Mamlakatimizdagi islohotlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ularning tub mazmun-mohiyatida esa xalq farovonligini oshirish, aholi turmush tarzini yanada yaxshilash yotganini yuqoridagi misollarda ham yaqqol ko‘rish mumkin. Chunonchi, aholini arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlashga qaratilgan ishlar natijasida ham oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanmoqda, ham minglab aholi daromadli bo‘lmoqda, ham mamlakatimizning eksport salohiyati oshmoqda.

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘tayotgan yilda mazkur loyiha doirasida samarali ishlar qilindi. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi bo‘yicha yil davomida 224 million tup ko‘chat ekildi. Birgina bahorgi ko‘chat ekish mavsumida mamlakat bo‘ylab 138 million tup nihol o‘tqazildi. Bu kutilgan natijaga nisbatan 110,5 foiz ko‘p degani.

EKOFAOL YURT FUQAROSI MAQOMIGA MUNOSIBLIK MAS’ULIYATI

Zarrabin

Boshlanishi 1-betda

— So‘nggi yillarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yashillikni ko‘paytirish, suv taqchilligining oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Davlatimiz rahbari xalqaro darajada hamda mamlakat miqyosida ilgari surayotgan hayotiy ekologik tashabbuslar va ularni amalga oshirish borasidagi ishlar biz — ekologlarni benihoya ruhlantiradi hamda yanada katta mas’uliyat bilan ishlashga undaydi.

2025-yilning Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilingani ekologlar uchun katta yutuq bo‘ldi, deya bemalol ayta olamiz. Sababi yil davomida ushbu yo‘nalishda qilinadigan ishlar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan qonun hujjatlari va dasturlar qabul qilinishi mamlakatimiz ekologik barqarorligini ta’minlash yo‘lida katta samara beradi.

Ochig‘i, hozir mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida juda katta tarixiy voqealar kechyapti. Odatda tarixiy hodisalarga bevosita guvoh bo‘lganlar uning ahamiyatini, kerak bo‘lsa, haybatini to‘la anglab yetavermaydi. Chunki o‘zgarishlarni odatiy hayot tarzi sifatida qabul qiladi. Bugun yangi O‘zbekistonda ekologik masalalar yechimiga qaratilgan islohotlar ko‘lamiga “Zarrabin” orqali qarash biz kabi ekologlarga zavq beradi. Zero, mamlakatimiz ekologik faollik bilan masalalarga aniq yechimlar taklif etmoqda. Bunday o‘zgarishlar esa har qanday davlatdagi ekofaollarning orzusidir.

Joriy yil 13-dekabrda Prezidentimiz rahbarligida yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. O‘sha kun mamlakatimiz tarixidagi katta voqea sifatida yodda qoladigan bo‘ldi. Tasavvur qiling: bir vaqtning o‘zida energetika sohasidagi 18 ta majmua ishga tushirildi. Yana 6 tasining qurilishi boshlandi. Iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini chuqur tahlil etgan kishi bu jarayonning naqadar ulkan hodisa ekanini his etadi. Masalan, ushbu yangi loyihalar orqali kelgusi yillarda qo‘shimcha 9,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Natijada 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi, 4,6 million tonna zararli gaz chiqishining oldi olinadi. Muhimi, 4 milliondan ziyod xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta’minlanadi. Bu iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham 4 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratishga turtki beradi. Bu raqamlar ortida juda katta hayotiy yutuqlar yotibdi. Ularga esa yurtimizda “yashil” energetika ko‘lamini oshirish orqali erishyapmiz.

Ochig‘i, jamiyatimizdagi ko‘pchilik “yashil” energetika aslida nima ekani, ahamiyati qandayligini to‘liq anglab yetgani yo‘q deb o‘ylayman. To‘g‘ri, “yashil” energetika muhim ekanini bilamiz. Ammo mamlakatimizda bu boradagi islohotlar qay tarzda, qaysi sharoitda amalga oshirilayotgani, uning ortidagi mashaqqatni to‘la tushuna olganimiz, mazkur yangilanishlar kelajakda qanday samara berishini anglaganimiz yo‘q.

“Yashil” energetika orqali biz tabiatga chiqariladigan zararli gazni kamaytirishga erishamiz. E’tibor qiling: aholi yil sayin ko‘payib boraveradi. Bu musaffo havoga talab oshib borishini anglatadi. Demak, toza havodan to‘yib nafas olishimiz uchun ham “yashil” energetika kerak ekan. U tabiat muvozanatini saqlash, salomatlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Har oyning to‘rtinchi chorshanbasida Toshkent shahri va viloyat markazlarida “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasi o‘tkazildi. Joriy yil ushbu tadbir doirasida jamoat transportidan foydalanish orqali 800 mingga yaqin transport harakati cheklandi. Buning natijasida atmosferaga 2320 tonna zararli tashlama chiqishining oldi olindi.

Mana shu ma’lumotning o‘ziyoq qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘lamini oshirish orqali tabiatni asrashda katta natijalarga erishish mumkinligidan dalolat beradi. Axir “yashil” energetika sabab juda katta miqdordagi tabiiy resurslar, neft, ko‘mir xarajati kamayadi. Energiya olish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish kabi qator tarmoqlarda ushbu mahsulotlar kamroq ishlatiladi. Natijada tabiiy boyliklar kelajak avlodga ko‘proq yetib boradi. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistondagi “yashil” energetika islohotini kelajak kafolati, degan bo‘lardim. Zero, u mamlakatning qon tomiri, hatto yuragi bo‘lgan iqtisodiyot barqarorligini ta’minlaydi. Zero, XXI asrda iqtisodiy o‘sish energetikaga bevosita bog‘liq ekanini ortiqcha ta’riflash shart emas. Bizni mamnun etadigan, qalbimizni faxrga to‘ldiradigan jihat shuki, mazkur yo‘nalishda qisqa muddatda juda katta islohotlar amalga oshirildi.

2021-yilgacha mamlakatimizda “yashil” energetika ulushi nolga teng edi. Biroq ikki yilda 16 foizga yetkazildi. Tasavvur qilyapsizmi, ikki yilda noldan 16 foizga ko‘tarilish! Bu aytishga oson, ammo amaliyotda juda katta mehnat, mablag‘ sarfi deganidir. Buning zahmatini faqat mutaxassislar his etishi mumkin. Ochig‘i, bu islohotlarni so‘z bilan ifodalab berishga qiynalaman. Bunga so‘z boyligim kamligi emas, balki islohotlar ko‘lami kengligi sabab. Chunki O‘zbekiston mazkur yo‘nalishda endi tajriba to‘playotgan mamlakat bo‘lishi kerak edi. Amalda esa sohada ilg‘or bo‘lgan mamlakatlar mutaxassislarini hayratlantiradigan darajada katta yutuqlarga erishib, peshqadamga aylandik. Markaziy Osiyoda yetakchi bo‘ldik.

Ushbu ko‘rsatkich 2030-yilgacha yana 3,5 karra oshirilishi nazarda tutilmoqda. O‘shanda qayta tiklanuvchi energiya ulushi 54 foizga yetkaziladi. Mamlakat energetikasining yarmidan ko‘pi tabiatga zarar keltirmaydigan, iqtisodiy o‘sishga sabab bo‘ladigan quvvatni tashkil etadi. Shu yil 13-dekabr kuni yangi

energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag‘ishlangan tantanali marosimda davlatimiz rahbari ushbu faktlarni, kelgusidagi rejalarni aytdi. O‘shanda ko‘nglimdan bir gap o‘tdi: nasib etsa, 2030-yilga biz rejadagidan ham katta natija bilan yetib olamiz. Chunki bunga yetarlicha imkoniyat va salohiyatimiz bor. Axir xorijlik ekspertlar, ayniqsa, shu sohaga sarmoya kiritadigan, uzoq yillik tajribaga ega mutaxassislar ushbu yo‘nalishdagi ishlarimiz istiqboliga yuksak ishonch bildirmoqda. Bu bejiz emas, axir. Ular shu orqali kelajagimiz kafolatiga yuqori baho bermoqda. Demoqchimanki, yangi O‘zbekiston “yashil” energetika sohasida juda katta sakrash qildi. Boshqalar yurayotganda biz yugura oldik.

Yurtimizda “Biz bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!” degan shior atrofida birlashish g‘oyasi ilgari surilmoqda. Ushbu shior “yashil” energetika sohasida ham amal qilishi kerak deb o‘ylayman. Imkonimiz yetadimi, darrov xonadonimizni “yashil” energetika bilan ta’minlashimiz zarur. Bu borada ham qator yengilliklar, subsidiya va imtiyozli kreditlar berilmoqda. Shulardan samarali foydalanishimiz kerak. Mana shu harakatimiz bilan oz bo‘lsa-da, ekologik barqarorlikka hissa qo‘shishimiz shart.

Ekologik barqarorlik haqida gap ketar ekan, “Yashil makon” umummilliy loyihasini e’tirof etishimiz kerak. Xo‘sh, nima uchun tabiat muvozanati haqida fikr yuritganimizda daraxt ekishni birinchi bo‘lib eslaymiz. Buning bir qancha muhim sabablari bor.

Birinchidan, daraxtlar fotosintez jarayonida uglerod dioksidini so‘rib, kislorod ishlab chiqaradi. Bu inson va hayvonlar hayoti uchun muhim. Ayni paytda u havoni tozalaydi. Ya’ni daraxtlar havodagi chang, zaharli modda va uglerod dioksidini filtrlab, atrof-muhit musaffoligini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, daraxtlar ildizi yerni mustahkam tutib, eroziya jarayonini to‘xtatib turadi. Bu suv toshqini, garmsel va boshqa zararli shamollardan himoya qiladi. Garmsel issiq va quruq bo‘lgani bois, yer yuzasidagi oziq moddalarni uchirib, tuproq unumdorligini yo‘q qiladi. Daraxt esa shamol tezligini pasaytiradi. Bu shamol eroziyasi, zararli zarrachalar va changning ta’sirini qisqartiradi. Muhimi, yashil olam havo haroratini mo‘tadil saqlashga xizmat qilib, bug‘lanishni sekinlashtiradi. Shu tariqa daraxtlar garmselning salbiy oqibatlarini yumshatadi. Qolaversa, shu jarayon orqali tabiatda suv aylanishini barqarorlashtiradi.

Uchinchidan, daraxtlar ko‘plab qushlar, hayvonlar, hasharot va o‘simliklar uchun tabiiy boshpana va oziq-ovqat manbaidir. Shu orqali bioxilma-xillikni saqlashga yordam beradi.

“YURTIMIZDA “BIZ BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!” DEGAN SHIOR ATROFIDA BIRLASHISH G‘OYASI ILGARI SURILMOQDA. USHBU SHIOR “YASHIL” ENERGETIKA SOHASIDA HAM AMAL QILISHI KERAK DEB O‘YLAYMAN. IMKONIMIZ YETADIMI, DARROV XONADONIMIZNI “YASHIL” ENERGETIKA BILAN TA’MINLASHIMIZ ZARUR.

Ko‘ryapsizmi, birgina “Yashil makon” umummilliy loyihasi qanchadan-qancha ekologik masalalar yechimi bo‘la oladi. Shu bois, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlanib, qisqa muddatda xalqaro miqyosda e’tirof etilgan loyihaning ahamiyati juda katta.

O‘tayotgan yilda mazkur loyiha doirasida samarali ishlar qilindi. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi bo‘yicha yil davomida 224 million tup ko‘chat ekildi. Birgina bahorgi ko‘chat ekish mavsumida mamlakat bo‘ylab 138 million tup nihol o‘tqazildi. Bu kutilgan natijaga nisbatan 110,5 foiz ko‘p degani. Kuzgi mavsumda esa ushbu ko‘rsatkich 86 million tup ko‘chat bilan 107 foizni tashkil etdi. Endi muayyan vaqt o‘tib, ushbu ko‘chatlarning katta boqqa aylanishi va tabiatga qanchalik foyda bo‘lishini ko‘z oldingizga keltiring. Bot-bot takrorlayotganimiz — tarixiy voqealarning o‘q tomiri, shu aslida.

Bugungi ekologik muammolar, ular keltirib chiqarayotgan oqibatlar haqida barchamiz yaxshi bilamiz. Butun dunyoda global isish

ortidan suv tanqisligi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi xatarlar bilan yuzma-yuz turibmiz. Nima uchun? Chunki dunyo ahli o‘z vaqtida ekologik masalalarga yetarlicha e’tibor qaratmadi. Taklif qilingan yechimlar ham hayotbaxsh ahamiyat kasb etmadi. Birgina misol: biz uzoq vaqtlardan beri Orol fojiasi haqida bong uramiz. Xalqaro darajadagi mas’ullar ham bunga e’tibor berganday, masalani hal etishga kirishganday bo‘ldi. Ammo vaziyat yomonlashishda davom etdi-ku! Yangi O‘zbekistondagi islohotlar sabab Orolning qurigan tubini yashil qoplama bilan qoplab olish harakati boshlandi. Bugun Orolda zararli changlar ko‘tarilishi kamaymoqda. Bu aynan mana shu islohotlar natijasi. Yangi yilda atrof-muhitni asrash borasidagi barcha ishimiz mana shunday samarali bo‘lishi kerak! Bu bir-ikki mas’ulga emas, keng jamoatchilik, butun jamiyatga birdek mas’uliyat yuklaydi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning “O‘zbek bobo” hikoyasini eslab o‘tmoqchiman. Hikoya qahramoni — mo‘ysafid butun umrini bog‘iga bag‘ishlaydi. Uni o‘z bolasiday yaxshi ko‘radi. Shaharga ko‘chib ketgan o‘g‘li kelib, shu boqqa egalik qilishini, uni gullatib-yashnatishini istaydi. Holat shu darajaga yetadi: mo‘ysafid daraxtni qulashdan asrab qolish uchun jonini tikadi. Uni yelkasi bilan to‘sib qolib jarohatlanadi. Shunday fazilatlari sabab hikoyaning yana bir qahramoni — Qismatillo mo‘ysafidni O‘zbek bobo deb ataydi. Demoqchimizki, xalqimiz azaldan daraxtlarni ardoqlagan. Unga o‘z bolasiday munosabatda bo‘lgan. Bugun daraxt ekayotgan va buni targ‘ib qilayotganlarni, yashil olamga mehri cheksiz yurtdoshlarimizni ko‘rganimda ularni O‘zbek bobo deb atagim keladi.

Yangi O‘zbekistondagi ekologik islohotlarga barchamiz kamarbasta, O‘zbek bobo siymosiga munosib bo‘lishimiz kerak deb o‘ylayman. Bu esa ekologik madaniyatimiz bilan bog‘liq. Shu o‘rinda ekologik madaniyatimiz haqida fikr almashsak. Zero, Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili samarali bo‘lishi bir butun xalq sifatida ekologik madaniyatimizni yuksaltirishimizga bog‘liq.

XXI asrda tabiat muvozanati izdan chiqa boshladi. Oddiy misol: kundalik turmushimizda hosil bo‘ladigan chiqindi bilan bog‘liq holat suv, tuproq, atmosfera kabi asosiy tiriklik unsurlariga ulkan zarar yetkazadigan muammoga aylandi. Tabiat bag‘ridan tortib olayotganimiz suvni esa allaqachon beqadr ne’matlar safiga qo‘shib qo‘yganmiz. Tejash, oqilona foydalanish, ifloslantirmaslik kabi tushunchalar fitratimizga begonalashib bormoqda.

Ekologik muammolarning o‘ziga xos jihati shundaki, ularga qarshi muayyan kishilar, sanoqli hududlar, hatto sanoqli mamlakatlar kurashi bilan biror natijaga erishib bo‘lmaydi. Ularga qarshi kurashishni, avvalo, har bir inson o‘zidan boshlashi, atrofidagilardan ham shuni talab qilishi, jamiyatda tabiatga qarshi har qanday salbiy holatga murosasiz munosabat shakllanishi zarur. Mana shu ekologik madaniyat bo‘ladi!

Ekologik madaniyat haqida ko‘p gapiramiz, tadbirlar o‘tkazamiz. Hatto bu boradagi katta loyihalarga mablag‘lar ajratilyapti. Lekin natija-chi?! Afsuski, bu jihatdan hamon maqtana olmaymiz. Chunki sa’y-harakatlarimiz tarqoq, mas’ul davlat tashkilotlari ham, jamoat tashkilotlari ham bu borada imkoniyati darajasida harakat qilyapti, xolos. Oqibatda ushbu yo‘nalishdagi aksariyat ishlarimiz, maqsadli loyihalarimiz qumga singgan suvdek izsiz ketmoqda.

Jamiyatda ekologik madaniyat shakllanishi uchun ekologik huquqbuzarlikka murosasiz munosabat, yon-atrofdagi holatlarga daxldorlik hissi katta to‘lqin misoli hayotimizning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Biz yakka tarzda, har bir kishi o‘z holicha qanchalik tabiatsevar bo‘lmasin, atrof-muhit muhofazasi uchun nechog‘liq jon kuydirmasin, tabiatga zarar yetkazish davom etaveradi. Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida mana shunday tarqoq tashabbuslarimiz bir musht bo‘lib jipslashishiga ishonaman.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarning atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va mulkdorning mol-mulkdan foydalanishda tabiatga zarar yetkazmasligi bilan bog‘liq burchlari qat’iy belgilab qo‘yildi. Buni samarali amalga oshirishimiz, har bir yurtdoshimiz o‘zining ana shu burchiga to‘liq amal qilishiga erishishimiz uchun bugun qat’iy mexanizmlarga ehtiyoj paydo bo‘lyapti. Bunga esa aholi, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki va jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish orqaligina erishish mumkin.

Ekologik ta’lim, ekologik savodxonlik borasida so‘nggi yillarda yuzlab, balki minglab tadbirlar o‘tkazildi. Ammo tan olishimiz kerak, xalqimizning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda fuqarolarning ekologik savodxonligini oshirish borasida ko‘plab muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Oddiygina misol: ekologik ta’lim haqida so‘z borganda ba’zan “Buning uchun yetarli kadrlar yo‘q, avvalo, mutaxassislar tayyorlashimiz kerak...”, degan gaplarni eshitamiz. Nahotki, ota-bobolarimiz, kayvoni momolarimiz ming yillar davomida “Suvga qarab supurma”, “Ostonangni ozoda tut”, “Hovlingdagi chiqindini ko‘chaga tashlama...” kabi oddiy tutumlar bilan butun boshli qishloqlarda tozalik-ozodalik, xayr-barakani saqlab kelgani holda, bugun bizga shularni o‘rgatish uchun mutaxassis kerak bo‘lsa?!

Yuqorida O‘zbek boboni bejiz misol qilib keltirmadik. Bu borada yangi yilda barchamiz birlashib, keng ko‘lamli targ‘ibot olib borishimiz kerak. Zarur bo‘lsa, shunday hikoyalarni filmga aylantirish, OAV va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanib targ‘ib etishimiz shart. O‘rni kelganda aytib o‘tay: “Yangi O‘zbekiston” gazetasida ekologik masalalarga bag‘ishlab tahliliy maqolalar berib borilishi juda samarali an’ana. Kelgusida bunday chiqishlarni yanada ko‘paytirish tarafdorimiz. Chunki O‘zbek bobo kabi tabiat, mamlakat fidoyilariga kamarbasta bo‘lish har birimizning burchimiz.

2024-yilda yangi O‘zbekiston xalqaro maydonda ekofaol mamlakat sifatida tanildi, tan olindi. Buni o‘tib borayotgan yilda xalqaro darajadagi yirik tadbirlar, xususan, BMTning Jahon iqlim sammiti (COP29) misolida ham ko‘rish mumkin. Demak, har birimiz shunga munosib tarzda vazifamizni bajarishimiz, kelgusi yil uchun ekologik rejalarni amalga oshirishda faol ishtirok etishimiz kerak. Zero, tabiatni asrash insonni, kelajakni asrash demakdir!

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Boboravshan G‘OZIDDINOV yozib oldi.



2024-yil 27-dekabr, 263-son

Ayol ishbilarmon bo‘lsa, oilalar farovonlikka yuz tutadi. Shu bois, yangi O‘zbekistonning yangi islohotlarida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

www.yuz.uz

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz_official yuz.uz_news yuz

Kambag‘allikdan farovonlik sari

AYOLLAR TADBIRKORLIGI: SHAROIT, IMKONIYAT VA SAMARA

Karmana tumanidagi Narpay mahallasida istiqomat qiluvchi Xursanoy Hamzayeva hududda “Gulchi opa” nomi bilan tanilgan. Hayotining qirq yilini o‘qituvchilik kasbiga bag‘ishlagan bu ayol yoshligidan gul parvarishiga mehr qo‘ydi. O‘qituvchilikdan nafaqaga chiqqan Xursanoy opa ushbu mehr tufayli gulchilikni doimiy mashg‘ulotiga aylantirdi. Ayni vaqtda ushbu yo‘nalishda oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘ygan qahramonimiz xonadonidagi issiqxonada 50 dan ortiq turdagi gullar parvarishlanmoqda. Uning turmush o‘rtog‘i va oila a’zolari ham tadbirkorlik faoliyatida yaqindan ko‘makchi bo‘lib kelmoqda. Hozir Xursanoy Hamzayeva o‘z kelinlariga gulchilik sirlarini o‘rgatib, ularni bu ishga jalb etgan. Turli gullarga burkangan gulxona nabiralarining ham sevimli maskaniga aylangan.

— Kasbim o‘qituvchi bo‘lsa-da, yoshligimdan gullar va ularni parvarish qilishga qiziqqanman. Nafaqaga chiqqanimdan keyin bu mashg‘ulotga alohida e’tibor qaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Yurtimizda ishbilarmonlik, ayniqsa, ayollar tadbirkorligi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Men ham bu imkoniyat va imtiyozlardan foydalanib, gulchilik bo‘yicha oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘ydim. Issiqxona qurib, parvarishlanayotgan gullar turini ko‘paytirdik. Mehnatimizga yarasha yilning to‘rt faslida ham daromadimiz yaxshi, — deydi Xursanoy Hamzayeva.

Prezidentimiz joriy yil 7-mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida mahallalarda oilaviy tadbirkorlik uchun kreditlarning kamida 40 foizi ayollar taklif etgan loyihalarga yo‘naltirilishi va shu maqsadda har bir hududda xotin-qizlar uchun hunarmandlik, tadbirkorlik markazlari va klasterlari tashkil etilishini ta’kidlagan, shuningdek, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 8 ming xotin-qizga biznesini boshlashi va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun subsidiya, 10 ming nafariga esa imtiyozli kreditlar ajratilishi bo‘yicha vazifalarni belgilab bergan edi.

Ushbu vazifalarning amaldagi ijrosi hududlarda xotin-qizlar bandligini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Navoiy viloyatida ham joriy yilda qator chora-tadbirlar belgilanib, xotin-qizlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Karmana tumanida bugungi kunda 76 mingdan ziyod xotin-qiz istiqomat qiladi. Joriy yilda mahallalarda ishsiz va ishlash istagini bildirgan 4093 ayolning ro‘yxati shakllantirilgan. O‘tgan vaqt

mobaynida ularning bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish chora-tadbirlari natijasida 1297 nafari bo‘sh va yangidan tashkil etilgan ish o‘rinlariga joylashtirildi. Shuningdek, 132 nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 156 nafari subsidiya hamda 1246 nafari imtiyozli kredit ajratish orqali ishli bo‘ldi. Muhimi, hududda tadbirkor xotin-qizlar soni ko‘payib, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi oshdi.

Hozir ro‘zg‘or yumushlari, farzand tarbiyasidan ortib, jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, biznesini yo‘lga qo‘yib, odamlarni ish bilan ta’minlayotgan ko‘plab tadbirkor xotin-qizlar orasida karmanalik hunarmand Gulshan Rustamova ham bor.

— Tikuvchilik yo‘nalishida oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yganimdan keyin mahalladagi 6 nafar xotin-qizni ish bilan ta’minladim. Asosan, ayollar liboslarini tikib, ularga milliy bezaklar beramiz. Ularga nafaqat mahalliy aholi, balki xorijiy sayyohlarning ham qiziqishi yuqori. O‘tgan vaqt davomida o‘nlab shogirdlarimga chevarlik sirlarini o‘rgatdim. Ularning ko‘plari mustaqil ravishda ishlab, daromad topmoqda, — deydi hunarmand Gulshan Rustamova.

Navoiy shahrida 81 mingga yaqin xotin-qiz istiqomat qiladi. Joriy yil boshida o‘tkazilgan xatlov natijasida 1391 nafar ishsiz xotin-qizning ro‘yxati shakllantirilgan edi. Ularni kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida olib borilgan amaliy ishlar natijasida 1269 nafarining bandligi ta’minlandi.

Shaharning asosiy drayveri xizmat ko‘rsatish sohasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo‘yicha ishlar mutlaqo yangicha yondashuv va tizim asosida tashkil qilindi. Natijada 215 ayol Navoiy shahri “Ishga marhamat” monomarkazi, 133 nafari esa Xotin-qizlar tadbirkorlik markazida o‘zlari qiziqqan kasb-hunar bo‘yicha bepul o‘qitilib, sertifikatlarga ega bo‘ldi. Bundan tashqari, mehnat migratsiyasida bo‘lib qaytgan 294 xotin-qizning qiziqishlari inobatga olinib, alohida “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Joriy yil davomida ularning 93 nafari ishga joylashtirildi, 31 nafariga imtiyozli kreditlar ajratildi hamda 54 nafari mahoratini oshirish uchun kasb-hunarga o‘qitildi. Hududda 671 xotin-qiz hunarmandlik va boshqa daromadli yo‘nalishlarda ish boshladi.

> **Navoiy viloyatida eng katta hududga ega bo‘lgan Konimex tumanida cho‘l maydonlari ko‘p. Avvaldan chorvadorlar yurti deb atalgan ushbu hududda ham so‘nggi yillarda xotin-qizlarning yashash tarzi, turmushi va faolligi butkul o‘zgardi. Ularni ijtimoiy himoya qilish, kasb-hunarga o‘qitib, bandligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar sababli tumanda har yo‘nalishda ishbilarmon va tadbirkor ayollar safi kengaydi.**

Bu jarayonda xotin-qizlar murojaatlari asosida mavjud muammolarni ijobiy hal etishga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu murojaatlar mazmunining aksariyati bandlik, ijtimoiy nafaqa belgilash va imtiyozli bank kreditlari ajratish masalalari bilan bog‘liq. Bundan ko‘rinadiki, uch masalaning ildizi bitta, ya’ni murojaatchilarning barqaror daromad manbai yo‘qligidir. Bu kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning o‘zini o‘zi band qilishi, doimiy ish o‘rni va daromad manbaiga ega bo‘lishiga ko‘maklashish maqsadida o‘tgan vaqt davomida amalga oshirilgan choralar natijasida ularning muammolari ijobiy yechim topdi.

Shaharning Gulzor mahallasida yashovchi Rayhon Pirnazarova imkoniyatlardan foydalanib, pishiriq tayyorlashni yo‘lga qo‘ydi. Shu orqali mahallasidagi qo‘shni ishsiz ayollarni ham ish bilan ta’minladi.

— 2020-yildan buyon uyda buyurtma asosida pishiriqlar tayyorlay boshlaganman. Mahalladagi hokim yordamchisi ko‘magida oilaviy tadbirkorlik tashkil qildim va 33 million so‘m imtiyozli kredit asosida zarur jihozlar xarid qilib, faoliyatimni kengaytirdim. Ayni vaqtda tayyorlagan mahsulotlarimiz savdo do‘konlariga yetkazib berilmoqda. Bugungi kunda 10 xotin-qizni ish va yaxshi maosh bilan ta’minlaganmiz. Hozir mahsulotlar turini yanada ko‘paytirib, faoliyatimizni kengaytirishni rejalashtirganmiz, — deydi Rayhon Pirnazarova.

Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash jarayonlari olis hududlarni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Navoiy viloyatida eng katta hududga ega bo‘lgan Konimex tumanida cho‘l maydonlari ko‘p. Avvaldan chorvadorlar yurti deb atalgan ushbu hududda ham so‘nggi yillarda xotin-qizlarning yashash tarzi, turmushi va faolligi butkul o‘zgardi. Ularni ijtimoiy himoya qilish, kasb-hunarga o‘qitib, bandligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar sababli tumanda har yo‘nalishda ishbilarmon va tadbirkor ayollar safi kengaydi. Joriy yilning boshida Konimex tumanida yashaydigan 18 mingga yaqin xotin-qizning mingdan ziyodi ishsizligi aniqlangan edi. Yil yakuniga kelib, ularning 873 nafari ish bilan ta’minlandi.

— Viloyatimizdagi ishsiz xotin-qizlar bandligini ta’minlash jarayonida kredit olish imkoni bo‘lmagan oilalarga davlatimiz tomonidan subsidiyalar ajratilmoqda. Shuningdek, ilk biznesini boshlagan ayollardan tashqari joriy yilda 860 nafar ishbilarmon xotin-qiz bank kreditlari asosida tadbirkorlik faoliyatini kengaytirib, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratib, ish beruvchiga aylandi. Bundan tashqari, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida ham xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilganmiz va 2025-yilda bu borada amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab olganmiz, — deydi Navoiy viloyati hokimi o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i Malika Mamadiyorova.

Albatta, ayol tadbirkor bo‘lsa, jamiyat gullab-yashnaydi, ayol ishbilarmon bo‘lsa, oilalar farovonlikka yuz tutadi. Shu bois, yangi O‘zbekistonning yangi islohotlarida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

> **Karmana tumanida bugungi kunda 76 mingdan ziyod xotin-qiz istiqomat qiladi. Joriy yilda mahallalarda ishsiz va ishlash istagini bildirgan 4093 ayolning ro‘yxati shakllantirilgan. O‘tgan vaqt mobaynida ularning bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish chora-tadbirlari natijasida 1297 nafari bo‘sh va yangidan tashkil etilgan ish o‘rinlariga joylashtirildi. Shuningdek, 132 nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 156 nafari subsidiya hamda 1246 nafari imtiyozli kredit ajratish orqali ishli bo‘ldi. Muhimi, hududda tadbirkor xotin-qizlar soni ko‘payib, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi oshdi.**

Agrar tarmoq

CHIQINDIDAN TABIIY TOZA OZUQA

BOZORDA UNING O‘Z XARIDORI BOR

“Ko‘lmakda kimdir loyqa suvni, boshqa birov esa yulduzlarning aksini ko‘radi”, degan edi mashhur yozuvchilardan biri. Darhaqiqat, oramizda bizga xunuk, g‘alati ko‘ringan narsalarda ham go‘zallikni ko‘ra oladiganlar bor.

Mingbuloqlik Alijon Ro‘ziboyev singari tadbirkorlar esa chiqindini foydali mahsulotga aylantirib, yaxshigina daromad topyapti. Bundan 4 yil avval Kaliforniya qizil chuvalchangi boqishni boshlagan Alijon aka Turkiyaga issiqxona tajribasini o‘rganish uchun borganda biogumus tayyorlashga qiziqib qolgandi. Chunki qahramonimiz u yerdagi issiqxonalarda biogumusdan keng foydalanilayotganiga guvoh bo‘ladi. O‘zbekistonda ham shunday tabiiy o‘g‘it tayyorlaydiganlar bormikan deb internetdan qidiradi. Andijonlik tadbirkor Rustam Usmonov chuvalchang biznesini 25 yil avval boshlagani, katta miqdorda biogumus tayyorlab sotishini bilgach, uning oldiga boradi. O‘sha paytda 3 kvadrat metr joydagi chuvalchangni 9 million so‘mga sotib olib kelib, 20 kvadrat joyda boqa boshlaydi. Chuvalchangning bir jufti bir yilda 2000 taga ko‘payar ekan. Shuning uchun Alijon aka 2 ming kvadrat metrga yoyilgan bu hasharotlar ortidan yiliga 500 million so‘m daromad topyapti. Tomorqadan ortib, dalada ham biznesi kengayib boryapti.

Chuvalchang biznesiga qiziqib qolgan ba’zi qo‘shnilari shu ishni boshlab, 15-20 million so‘mgacha foyda ko‘ryapti. Yozda har kuni, qishda haftada bir marta suv quyib turiladi. Har gal yangi go‘ng solinganida avvalgi go‘ngni qayta ishlab, tuproqqa aylantirib bo‘lgan chuvalchanglar yuqoriga chiqib oladi. Yana pastga qarab ozuqani yeb, tuproqqa aylantiraveradi. 6 oydan boshlab, 7-8 oyda tayyor bo‘lib qolgan biogumus elakdan o‘tkazilganida chuvalchanglar ajralib qoladi. Biogumus holiga kelgan go‘ngda ozuqa qolmagani uchun hasharotlarning 70 foizi o‘z-o‘zidan ozuqa bor qatorga o‘tib oladi. Shu tariqa keyingi qatordagi biogumus tayyor bo‘ladi. Chuvalchangning o‘zini sotib olmoqchi bo‘lganlarga ozuqasi bilan kvadrat hisobida o‘lchab beriladi.

To‘g‘ri, 3-4 yil oldin mahsulotni sotish bir oz qiyin kechdi. Bugun esa har qancha biogumus bo‘lsa, qolib ketmaydi. Ayniqsa, issiqxonasi borlar, fermerlar tonnalab olib ketadi. Mirishkorlarning aytishicha, imkoni bo‘lsa, bir yilda bir gektarga kamida 3 tonna biogumus kerak. Har tup ko‘chatga 500 gramm berilsa, natijasi tez bilinadi. Gullagan, meva tugadigan paytda berilsa, ham hosilga, ham o‘simlikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

— Shu kunlarda 500 tonna biogumus ham sotilib ketar ekan. Esiz, zaxiramiz kamlik qildi, — deydi Alijon aka. — Nasib qilsa, faoliyatimizni kengaytirib, eksportni yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Tuproq kam joylarda bu mahsulotning qadri baland. Arab mamlakatlarida uning bir kilogrammi 2 dollargacha sotiladi. Shu o‘rinda chuvalchang biznesi bilan shug‘ullanadigan yurtdoshlarimizdan birining gapi esga tushdi: “Chet elda biogumus tarkibi chuqur tekshiriladi. Uning tarkibidagi 4 ta aminokislota boshqa hech narsada mavjud emas ekan”. Bugun yurtdoshlarimiz ham biogumusning foydasini juda yaxshi bilib qoldi. Mineral o‘g‘itda pishgan mahsulot organizm uchun zararli ekanini ko‘rganidan keyin mijozlar ham tabiiy pishgan meva-sabzavotni qidiradi-da. Dorilangan tarvuz, tashqarisi qizil, ichi oppoq pomidorni yeb, tobi qochayotganlar kammi hozir.

Darhaqiqat, kimyoviy dorilar bilan oziqlangan mahsulotlar tarkibida nitrat miqdori oshib ketib, iste’mol qilinganda sog‘liqqa putur yetkazishini mutaxassislar ham ta’kidlaydi. Ko‘plab kasalliklar poliz mahsulotlarida aminokislotalar yetishmasligidan kelib chiqar ekan. Shu ma’noda, biogumus bilan oziqlangan mahsulot ekologik toza deb qadrlanyapti.

Bozorlarda biogumus nafaqat meva-sabzavot, daraxtlar, balki tuvak gullar uchun kichkina hajmda qadoqlanganini ham ko‘ramiz. Bunday qadoqdagi o‘g‘itni asosan, ayollar sotib oladi. Bugun xonaki gullarning ham yuzlab yangi xili yurtimizga kirib keldi. Gul bozoriga borib qolsangiz, turfaligidan ko‘z qamashadi.

— Har bir xonadonda o‘rtacha 5 tuvakda gul o‘sadi deb hisoblasak, ularga bir kilogrammdan biogumus solinsa ham 5 kilogramm o‘g‘it ishlatiladi. Vodiyning o‘zida 10 million kishi bor desak, hamma 5 kilogrammdan biogumus sotib olsa,

20 milliard so‘m bo‘ladi. Bir oila 10 ming so‘mga 5 kilogramm biogumus solishga og‘rinmasa kerak. O‘zbekiston bo‘yicha xonaki gullarga biogumusdan foydalanish yo‘lga qo‘yilsa, 60-70 tadbirkor biogumus tayyorlash bilan to‘xtovsiz shug‘ullansa,

1 milliarddan daromad topishi mumkin. Qolaversa, “Yashil makon” barpo etamiz deb minglab tup nihol ekyapmiz. Ba’zan suv quymay ekish holatlari bo‘lgani uchun ko‘plab ko‘chat qurib qoldi. Agar har bir daraxt ostiga biogumus solinsa, bu o‘g‘it namlikni saqlashi hisobiga daraxtlarning qurib qolish ehtimoli kamayadi. Bundan tashqari, tuproqqa yangi o‘rnashgan ildizga kuchli ozuqa bo‘ladi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino ham chuvalchang 40 dan ziyod kasallikka davo ekanini yozgan. Shu ma’noda, quritib, undan dori-darmon tayyorlayotganlar ham bor. Alijon Ro‘ziboyev esa hozircha chuvalchang va biogumus savdosini kengaytirmoqchi. Parvarish joylarini yanada qulay, yangicha uslubda tayyorlashni rejalashtirgan. Aytishicha, tomorqada ham biogumus tayyorlab, bemalol ro‘zg‘or tebratish mumkin. Zero, yarim sotix yerdan 15 tonnagacha mahsulot, 30 million so‘mgacha daromad olsa bo‘ladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Parij – 2024” XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlari O‘zbekiston delegatsiyasi uchun har qachongidan ham omadli va ulkan yutuqlarga boy bo‘ldi. 4 yillikning eng nufuzli musobaqasida sportchilarimiz 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medal bilan 206 mamlakat orasida 13-o‘rinni egalladi.

Yangi O‘zbekiston orzusi

MAMLAKATIMIZ SPORTIDA TARIXIY DAVR

IRSIYATDAGI ASL IQTIDOR UYG‘ONMOQDA

Keyingi yillarda barcha sohalar qatori sportda erishayotgan olamshumul yutuqlarimiz bilan ham haqli ravishda faxrlana boshladik. Ayniqsa, 2024-yilda sport olamida O‘zbekiston nomi ko‘p bora baralla yangradi. Yurtimiz sportchilari Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida butun dunyoni lol qoldirdi. Tarixiy natijalar qo‘lga kiritildi.

Bu kabi yutuqlar asosida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, buning uchun mahallalarda, ta’lim muassasalarida zarur sharoitlar yaratish, infratuzilmani shakllantirish kabi chora-tadbirlari mahsuli turibdi, albatta.

Davlatimiz rahbarining sportchilarni, murabbiylarni qo‘llab-quvvatlash siyosati zamirida juda katta hayotiy haqiqatlarni ko‘rishimiz mumkin.

O‘zligini anglashni istagan har bir inson irsiyatida yashayotgan sirli iqtidor va salohiyatni bilgisi, yuzaga chiqargisi keladi, aslida kimning avlodi ekaniga qiziqadi. Bugun turli davlatlarda o‘tkaziladigan ko‘plab musobaqayu bellashuvlarda ketma-ket g‘alabaga erishayotgan sportchilarimiz aynan o‘sha gen “kalit”ini topgan, undan qay vaqtda, qay tarzda foydalanishni biladi. Bu “kalit”lar esa muhitga tushib, ishlay boshlagan.

Irsiyatdagi iste’dodning uyg‘onishida sharoit, albatta, muhim. Agar yetarli muhit bo‘lmasa, salohiyat yuqori darajada bo‘lsa ham ro‘yobga chiqmaydi. Genlar tabiati shunday: o‘z muhitiga tushmasa, ishlamay, jim yotaveradi.

Tog‘ olmasi taxirligi haqida bilamiz. Iste’mol qila olmaydigan darajada bemaza, kechpishar meva. Hatto qushu qurt-qumursqalar ham yemaydi. Agar uni hovlingizga olib kelib, ekib qo‘ysangiz, parvarishlasangiz, birinchi yili xuddi shunday kech pishadi, nihoyatda nordon va taxir bo‘lganidan hech kim yemaydi. To‘rt-besh yil o‘tgach esa doimgidan oldinroq gullay boshlaydi. Tag‘in yillar o‘tgach, mevasiga ham maza kiradi. Maza kirdi degani katta mazmunga ega. Bu epigenetika, ya’ni muhitga moslashuv, mavjud sharoitga ko‘nikib, u bilan birga jarayonga kirishish, degani.

Bizning sportchilar ham g‘alabaga eltuvchi mukammal tizim asta-sekin ishga tushishi bilan yuqori pog‘onalarga ishonch va qat’iy belgilangan reja asosida ko‘tarilib boraverdi.

Sababi ular ko‘rgan maktab o‘zlariga tashqaridan razm solish imkoniyatini taqdim etdi. Odamning har qanday holatda o‘z “men”i bo‘ladi, o‘zini yo do‘stiga, yo akasiga, yo narigi qutbdagi dongdor sportchiga solishtiradi. Shunda ichidan “Men-chi?”, degan ovoz keladi, g‘ururi, g‘ujuri uyg‘onadi. Bu kichik holat, biroq eng muhimi, u paydo bo‘ladi. Bunga qarama-qarshi tarzda uning ichini yana menda na “kattakon” tanish bor, na pul va na sharoit bor, degan qitmir fikr qitiqlaydi. Agar shu “men eplolmayman” degan qarashdan “Hammasining uddasidan chiqa olaman, bu mening ham qo‘limdan keladi”, degan qaror ustun kelsa, irsiyatdagi asl iqtidor harakatga kela boshlaydi.

Jahon sivilizatsiyasida katta o‘rin qoldirgan ajdodlarimizdan meros bo‘lib o‘tgan irsiyatdagi g‘alabaga erishish ishtiyoqi sportchilarimizda uyg‘ongach, O‘zbekiston to‘rt yillikning eng nufuzli musobaqasida rekordini yangiladi. Musobaqada erishilgan natijaning tarixiyligi shundaki, mamlakatimiz sportchilari “Parij – 2024” olimpiadasida dunyo bo‘yicha 13-, Osiyoda 4-, MDH davlatlari orasida 1-o‘rinni egalladi. Barakali yil yakunida erishilgan natijalar va oldinda turgan istiqbolli rejalar xususida O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi Bosh kotibi Oybek Qosimov bilan suhbatlashdik.

— 2024-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari biz uchun omadli keldi. Birinchidan, O‘zbekiston delegatsiyasi birinchi bor o‘z tarixidagi eng katta tarkib bilan musobaqalarga kirishdi. Bundan tashqari, jamoaviy sport turlarida olimpiadaga yo‘l oldi. O‘zbekiston U-23 jamoasi Osiyo chempionatida finalga chiqib, mamlakat tarixida ilk bor olimpiada yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Aynan siz uchun ushbu musobaqa qaysi jihati bilan esda qoldi?

— Darhaqiqat, “Parij – 2024” XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlari O‘zbekiston delegatsiyasi uchun har qachongidan ham omadli va ulkan yutuqlarga boy bo‘ldi. 4 yillikning eng nufuzli musobaqasida sportchilarimiz 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medal bilan 206 mamlakat orasida 13-o‘rinni egalladi. Biz Olimpiya o‘yinlarida nafaqat ishtirokchilar soni, balki medallar jamg‘arish borasida ham natijalarimizni yaxshiladik.

Shu bilan birga, ilk marotaba jamoaviy sport turi bo‘yicha to‘rt yillikning eng muhim startiga yo‘llanma oldik va Temur Kapadze boshqaruvidagi futbol bo‘yicha mamlakatimiz olimpiya terma jamoasi yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etishga muvaffaq bo‘ldi.

Dzyudo bo‘yicha terma jamoamiz ilk bor Olimpiya o‘yinlarida 3 ta medalga sazovor bo‘ldi. Taekvondo WT bo‘yicha ilk marotaba olimpiadada 2 ta medalni qo‘lga kiritdik. Badiiy gimnastikachilarimiz Olimpiya o‘yinlaridagi guruh mashqi dasturida birinchi marotaba final bosqichida ishtirok etdi. Bir yo‘la uch sportchimiz — Bahodir Jalolov, Hasanboy Do‘smatov va Ulug‘bek Rashitov ikki karra olimpiada chempioni, degan sharafli nomga sazovor bo‘ldi. Og‘ir atletikachimiz Akbar Jo‘rayev hisobida endi ikkita olimpiada medali bor (“Tokio – 2020” oltin, “Parij – 2024” kumush).

Albatta, bokschilarimizning olamshumul natijasini ham eslab o‘tish joiz. Parijda o‘zbekistonlik charm qo‘lqop ustalari chinakam shov-shuvga sabab bo‘ldi. Tasavvur qiling-a, 7 ta vazn toifasining 5 tasida o‘zbek bokschilari oltin medalni qo‘lga kiritdi va boks bo‘yicha terma jamoamiz o‘z tarixida ikkinchi marta yozgi Olimpiya o‘yinlarini umumjamoa hisobida 1-o‘rinda yakunladi. Qisqasi, Fransiya poytaxtida kechgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida eslashga arzigulik jihatlar ko‘p.

— O‘zbekiston boks terma jamoasi mamlakatga beshta oltin medal olib keldi. Bu natija, aytib o‘tganingizdek, tarixiy ahamiyatga ega. Hali hech qaysi jamoa bunday kichik tarkib bilan 5 oltin medalni qo‘lga kiritmagan. O‘zbekiston boks dunyosida yetakchi davlatlar qatoridan tushmay kelayotganining sabablari va yutuqli jihatlarini izohlab bersangiz.

— O‘zbek boks maktabining shonli tarixi, an’analari bor. So‘nggi yillarda yurtimiz charm qo‘lqop ustalari dunyo boksiga “o‘zbek modeli” tushunchasini olib kirdi. 2016-yilda Rio de-Janeyroda o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida ham bokschilarimiz umumjamoa hisobida birinchi bo‘lgandi. Parijda bu muvaffaqiyat tasodif emasligini bokschilarimiz beshta oltin medal bilan amalda isbotlab berdi. Albatta, O‘zbekiston boks federatsiyasining bu boradagi yutuqlari alohida e’tirofga loyiq. Terma jamoada har bir vazn bo‘yicha bir-birining o‘rnini bosib keta oladigan 3-4 nafardan teng kuchga ega tarkib shakllantirilgan. Bunday raqobatda har bir bokschi birinchi bo‘lishga intiladi va tabiiyki, o‘sadi ham.

Sportchilarning sportga moslashuvi shaxsning irodasiga bevosita bog‘liq. Iroda kishidagi noyob xarakter: bu avvaldan biror maqsad qo‘yib, unga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo‘r berish demakdir.

Hozir o‘smir yoshdagi sportchilarning g‘alaba uchun kurashida iroda omili katta ahamiyatga ega. Chunki qator tadqiqotlarda o‘smir yoshdagi sportchilarni musobaqalarga nafaqat jismoniy, texnik va taktik, balki maxsus psixologik tayyorlash zarurati muhimligi aniqlangan. Bu tayyorgarlik sportchining irodaviy sifatlarini rivojlantirish, o‘z kuchiga ishonch uyg‘otish, o‘tkaziladigan musobaqa tavsifi, ko‘lami, raqiblar xususiyatlari bilan tanishtirishga qaratilishi kerak. O‘smir rivojlanishida jismoniy mashqlarning ahamiyatini tahlil etib ko‘rsangiz, bu o‘rinda harakatlar psixologiyasi yetakchi omil ekani, bajarilayotgan jismoniy mashqlar o‘smirning makon va vaqt haqidagi tasavvurini rivojlantirishi kerakligiga e’tibor qaratasiz. Bu tasavvur qanday paydo bo‘ladi? O‘smir xatti-harakatlari kuchi, hajmi, yo‘nalishi va tezligini tasavvur qiladi. Bu jarayonda ko‘rish, his etish va mushak harakat sezgisi ishtirok etib, ularning o‘zaro uyushish sezgisini, shuningdek, makon va vaqt sezimini ham vujudga keltiradi. Boks murabbiylarimiz diqqatini aynan shu jihatga — sportchining beqaror hissiyotini metindek mustahkam, barqaror holatga keltirishga qaratdi, tinimsiz mehnat qildi, buning samarasi esa daraja va o‘rinlarda o‘z aksini topdi.

Yana bir e’tiborli jihat: bokschilarimiz olimpiadadan oldin so‘nggi o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini mahalliy iqlim va sharoitga moslashish uchun Fransiyada, aniqrog‘i, Nansi shahrida o‘tkazdi. Ushbu hal qiluvchi yig‘inga olimpiadaga boradigan har bir bokschimizga uchtadan sparring raqib, ularning shaxsiy murabbiylari, shifokor va massajchilardan iborat katta tarkib jalb qilindi. Yakunda esa bunday kompleks yondashuv o‘z natijasini berdi.

— Bir paytlar olimpiada g‘olibligi chiqib bo‘lmas cho‘qqidek edi. Prezidentimiz tomonidan “Parij – 2024” musobaqalarida kuchli 15 talikka kirish vazifasi qo‘yilganda ham ayrimlarda ikkilanish bo‘lgani sir emas. Burch sifatida qabul qilingan mazkur katta vazifaning uddasidan chiqishda qaysi omillar yordam berdi deb o‘ylaysiz?

— Eng avvalo, Prezidentimizning 2021-yil 5-noyabrdagi “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori tayyorgarlik jarayonida biz uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qildi. Aynan shu qaror asosida ishlab chiqilgan maxsus dasturda barcha vazifa, maqsadlar, mavjud masalalar va yechimlari aniq-tiniq belgilab berilgandi. Qolaversa, Sport vazirligi, Milliy olimpiya qo‘mitasi, sport federatsiyalari va assotsiatsiyalari bilan birga yakdil jamoa bo‘lib ishlandi. Sportchilarimizning mahalliy va xalqaro o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida ishtirok etishi uchun barcha sharoit yaratildi.

Birgina 2024-yilning o‘zida Olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘radigan terma jamoalarimiz uchun 190 ta mahalliy va 111 ta xalqaro o‘quv-mashg‘ulot yig‘ini tashkil etib berildi. Ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish uchun atletlarni tayyorlashga ilmiy-metodik jihatdan yondashgan holda, terma jamoalarimizga sportning 16 turi bo‘yicha 17 davlatdan malakali 31 trener-mutaxassis jalb etildi. Ular orasida uch karra yozgi Olimpiya o‘yinlari chempioni Vladimir Nazlimov (qilichbozlik), “Afina – 2004” olimpiadasi g‘olibi Ilias Iliadis (dzyudo), “Atlanta – 1996” yozgi Olimpiya o‘yinlari bronza medali sohibi Marko Shpitka (dzyudo), Gleb Groysman (velosport) nomini alohida qayd etib o‘tish mumkin. Shuningdek, boks bo‘yicha terma jamoamizga sportning ushbu turidan eng ko‘p olimpiya chempioni chiqqan mamlakat — Kubadan taniqli mutaxassislar taklif etildi. Ular orasida jahonga boks professori nomi bilan tanilgan Karlos Vilyanueva ham bor. Murabbiylardan tashqari malakali fizioterapevtlar, jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha yetuk mutaxassislar jamoalarimizda faoliyat yuritdi.

Shu bilan birga, terma jamoalarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, sportchi va murabbiylarni muntazam ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘z vaqtida olimpiya stipendiyasini to‘lab berishga ham jiddiy e’tibor qaratildi.

— Suvga sakrash, kamondan otish va ayollar kurashi bo‘yicha sportchilarimiz ilk bor 4 yillikning eng nufuzli musobaqasida qatnashish imkoniga ega bo‘ldi. Bu o‘zbek yoshlarida ushbu sport turlariga qiziqishni yanada oshirdi. Masalan, bu yilgi olimpiadaga qadar o‘zbek ayol-qizlari hech qachon olimpiada oltin medalini qo‘lga kiritmagan edi. Diyora Keldiyorova bu “an’ana”ni yo‘qqa chiqardi va eng kuchli sportchilarni mag‘lub etib, diyorimiz uchun oltin medalni taqdim etgan birinchi ayol sportchi bo‘ldi. Shu kabi yo‘nalishlarga yoshlarni, yangi-yangi iqtidorlilarni jalb qilish va kashf etish uchun qanday amaliy ishlar bajarildi?

— 2008-yilgi Pekin olimpiadasida hamyurtimiz Yekaterina Xilko o‘zbekistonlik ayol sportchilar orasida birinchi bo‘lib trampolin dasturida bronza medalga sazovor bo‘lgandi. O‘shandan beri, ya’ni 16 yil davomida o‘zbekistonlik hech bir ayol sportchi Olimpiya o‘yinlarida sovrindorlar safidan joy ololmagan. Parijda esa bir yo‘la ikki qizimiz bu vazifani uddaladi. Diyora Keldiyorovaning oltin medalidan tashqari, taekvondochi Svetlana Osipova kumush medalga munosib ko‘rildi. Tabiiyki, bunday natijaga o‘z-o‘zidan erishilgani yo‘q. Bu yurtimizda xotin-qizlar sportiga qaratilayotgan e’tibor samarasi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Professional sportga yo‘l ommaviy sportdan boshlanishi bugun hech kimga sir emas. Shu ma’noda, mamlakatimizda yosh iqtidorlarni saralash, seleksiya jarayoniga alohida ahamiyat qaratiladi. Bunda “Besh tashabbus olimpiadasi” kabi ommaviy sport musobaqalari, aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha o‘tkazib kelinayotgan sport sinovlari alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan mazkur bellashuvlar orqali saralab olingan iqtidorlilar keyinchalik terma jamoalarga jalb etiladi. Hozir yurtimizning barcha hududida faoliyat yuritayotgan olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari esa o‘quv-mashg‘ulotlar bazasi vazifasini bajaradi. Biz kelgusida ham seleksiya ishlarini yanada kuchaytirish, yosh iqtidorlarni saralab olish va professional sportchi bo‘lib kamol topishi uchun zarur sharoit yaratish bo‘yicha ishlarni izchil davom ettiramiz.

— Suhbatimiz avvalida ta’kidlanganidek, Parij olimpiadasida ilk bor jamoaviy sport turi — futbol bo‘yicha yo‘llanma qo‘lga kiritilgani mamlakatimiz sporti tarixida katta voqea bo‘ldi. Bu natija ortida juda katta mehnat turgani barchamizga ravshan. Shu o‘rinda birgina “Olimpik” futbol klubi tashkil etilganini eslash kifoya. Ayting-chi, sportning gandbol, voleybol, basketbol kabi turlari uchun ham shu kabi manzilli rejalar qay darajada amalga oshirildi?

— Aytib o‘tganingizdek, “Olimpik” loyihasi o‘zini to‘laqonli oqladi. Endi bu tajribani boshqa sport turlarida qo‘llab ko‘rish mumkin. Ochig‘i, gandbol, voleybol, basketbol va boshqa jamoaviy sport turlarida imkoniyatimiz futboldagichalik yuqori bo‘lmasligi mumkin. Lekin biz terma jamoalarga xorijlik murabbiylarni jalb qilish, uzluksiz o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini tashkil etish, sportchilarga yetarli sharoit yaratish bo‘yicha ishlaymiz. Bu sport turlari bo‘yicha terma jamoalarimizning oz bo‘lsa ham imkoniyati bor ekan, nega urinib ko‘rmasligimiz kerak?! Qolaversa, “Los-Anjeles – 2028” yozgi Olimpiya o‘yinlariga futboldan tashqari 3x3 basketbol, gandbol kabi jamoaviy sport turlari bo‘yicha ham yo‘llanma olishni reja qilganmiz. Bu borada ishlar allaqachon boshlab yuborilgan. Eng avvalo, federatsiyalar ishini jonlantirish maqsadida boshqaruvga ulkan tajriba va salohiyatga ega mutaxassislar jalb etilmoqda. Shu bilan birga, moddiy-texnik bazalarni yanada mustahkamlash, xorijdan kuchli trener-mutaxassislarni jalb qilish, tajriba almashish, sport tibbiyoti, diyetologiya, farmakologiya, psixologiya, ilm-fan yo‘nalishlarida ham hali qiladigan ishimiz ko‘p.

— Bizda hali natija ko‘rsatmagan, Olimpiada o‘yinlariga litsenziya qo‘lga kiritilmagan sport turlari ancha. Xo‘sh, keyingilarida jamoaviy sport turlari, umuman, biz muvaffaqiyatsizlikka uchragan yo‘nalishlarda ishtirok etishga qanday tayyorgarlik ko‘rilyapti?

— Jamoaviy sport turlari haqida gapirdik. Boshqa terma jamoalar haqida to‘xtalsak, ham vertikal, ham gorizontal yo‘nalishda vaziyat tubdan o‘rganib chiqilyapti. Sport vazirligi va MOQ rahbariyati har bir federatsiyaning tayyorgarlik strategiyasi, o‘quv-mashg‘ulotlar bazasi, sport inventarlarini o‘rganishdan tashqari, yurtimizning har bir hududida tadqiqotlar o‘tkazilyapti.

Aytmoqchimanki, Los-Anjeles olimpiadasiga tayyorgarlik delegatsiyamiz Parijdan qaytgach, boshlab yuborilgan. Terma jamoaga asosiy nomzodlar yetishtirib beradigan muassasalar viloyatlardagi sport maktablari hamda olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari (OPSTTM)dir. Shu bois, ishni eng quyi bo‘g‘indan — joylardagi sport maktablari, o‘quv-mashg‘ulot bazalari, OPSTTMlar faoliyatini tahlil qilishdan boshladik. Federatsiyalarning hududiy vakillari bilan vaziyat o‘rganilib, yangi olimpiada sikli uchun tayyorlanadigan huquqiy-me’yoriy hujjat loyihasiga takliflar shakllantirilyapti.

Bilasizmi, “Parij – 2024” olimpiadasida erishilgan yutuqlar bir necha yil oldin orzudek tuyulardi. Lekin Prezidentimizning qo‘llab-quvvatlovi bilan barchasi uddalandi. Sportning 4 turi bo‘yicha birdan debyut qilganimiz esa shu paytgacha yo‘llanma ololmagan federatsiyalarni ham ilhomlantirdi.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etilgan avvalgi suhbatimizda ham aytganman, hozir ham eslab o‘tsam, o‘rinli bo‘ladi: hamma joyda ham sportga davlat rahbari darajasida e’tibor qaratilmaydi. Bizning ulkan yutuqlarimizdan biri shuki, Prezidentimiz bevosita sportga qiziqib, uni tushunib, har bir kichik detaligacha e’tibor beradi. Yilda bir necha marotaba barcha soha vakillari bilan uchrashib, muammolarini o‘rganadi, yechim taklif qiladi. Ayniqsa, keyingi yillarda sportni rivojlantirish borasida bir qancha farmon va qarorlar imzolandi. Har bir sport turini alohida rivojlantirish uchun maxsus dastur tasdiqlandi. Shunchaki internet qidiruv tizimi orqali tekshirib ko‘ring, hech bir davlatda bunday tajriba kuzatilmagan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan poytaxtimizda Olimpiya shaharchasi barpo etilmoqda. Uning tarkibida jahon standartlariga to‘la javob beradigan zamonaviy suzish havzasi, sportning jamoaviy va yakkakurash turlari uchun arenalar, velodrom, futbol va yengil atletika uchun stadion hamda boshqa obyektlar bor. Ushbu kompleks tarkibida Sport vazirligi, Sport akademiyasi, federatsiya va assotsiatsiyalarning aksariyati, sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi, oliy sport mahorati maktablarining boshqaruv ofislari mujassam bo‘ladi. U yerda nazariya va amaliyot birlashib, shaharcha ilmiy-amaliy markaz — yagona sport klasteri vazifasini bajaradi. Shuningdek, ushbu bunyodkorlik loyihasi milliy terma jamoalarni yirik xalqaro musobaqalarga tayyorlash markazi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday infratuzilma bilan federatsiyalarimiz “Los-Anjeles – 2028” yozgi Olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha o‘z rejalarini ishlab chiqmoqda. Bu jarayonda bosqichma-bosqich yangi sport turlari bo‘yicha ham litsenziya qo‘lga kiritish ko‘zda tutilgan.

Birgina kapalak parvozi uchun keng osmon kerak bo‘lganidek, bir insonning iste’dodi, qobiliyati ro‘yobga chiqishi uchun tizimli muhit shakllantirilmog‘i, muxlislarning doimiy e’tirofi, davlat va jamiyatning e’tibori hamda qo‘llab-quvvatlovi suv va havodek zarur. Mamlakatimizda aynan shunday muhit yaratilayotgani esa kelgusi parvozlar uchun hadsiz fazo kengliklarini taqdim etishiga shubha yo‘q.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Azizbek YUSUPOV suhbatlashdi.

Daxldorlik

MA’NAVIY QUDRAT SIRI

yoxud Vatanni jonkuyar, kuchli tafakkur egalari yuksaltiradi



O‘qituvchi sinfdagi uch qoloq o‘quvchini darsdan keyin olib qolib, mavzularni o‘zlashtirishi uchun alohida qunt bilan shug‘ullandi. Natija ko‘p kuttirmadi. Sinfning umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi oshdi. Muallim shunday qilmaganida o‘sha o‘quvchilar maktabni bitirguncha qoloqlar safidan chiqolmay, kelajakda o‘z o‘rnini topishga qiynalar edi.

Bir yo‘lovchi yo‘l chetida kimdir qoldirib ketgan chiqindi solingan xaltani olib, maxsus joyga tashladi. Agar shunday qilmaganida o‘sha bir xalta ertaga chiqindilar uyumiga aylanishi tayin edi.

Qo‘shni bolaning xulqida salbiy o‘zgarishni ko‘rgan erkak uning otasi bilan gaplashdi. Farzand tarbiyasida nazorat muhimligini tushuntirdi. O‘spirinda odob-axloq mujdalari bo‘y ko‘rsata boshladi. Qo‘shni agar shunday

> **Joriy yil 27-oktabrdagi saylovda jamiyat va davlat ishlariga o‘zini daxldor bilgan 541 yoshlar yetakchisi o‘z nomzodini ilgari surdi. Natijada ulardan 2 nafari viloyat hamda 117 nafari tuman va shahar kengashlari deputatligiga saylandi. Yoshlar yetakchilarining bunday yutuqlarga erishishi ularga bildirilgan ishonch va imkoniyat natijasi bo‘lsa-da, bunga o‘sha “faol” medialar yetarlicha urg‘u bermadi.**

qilmaganida jamiyatda huquqbuzarlar bittaga ko‘payishi mumkin edi.

Katta jamoada hamkasblari ishni qo‘l uchida bajarayotgani uchun tanbeh bergan xodim hammaning ko‘ziga yomon ko‘rindi. Lekin norozi kayfiyatda bo‘lsa-da, dashnom eshitganlar o‘zi bilmagan holda ishga munosabatini o‘zgartira boshladi. Ish samaradorligi oshdi, maosh ko‘paydi. Agar shunday qilmaganida “Nega ishimizda unum, daromadimizda baraka yo‘q”, deb nolib yuraverar edilar.

Menga qolsa, bu yerda o‘qituvchi, yo‘lovchi, qo‘shni va xodimning xatti-harakatini qahramonlik bo‘lmasa-da, shunga yaqin yondashuv sifatida e’tirof etgan bo‘lardim. Ular o‘zini jamiyatga, yon-atrofga daxldor deb bilgani uchun ham shunday yo‘l tutdi. Axir oramizda

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

minglab shu kabi kasbiga fidoyi muallim, befarq bo‘lmagan yo‘lovchi, mahallasidagi yigit-qizlarni o‘z bolasidek ko‘radigan qo‘shni va “Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun” tamoyiliga to‘g‘ri yondashadigan xodimlar bor. Ulardan har biri o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi deb his etsa, hayotimizdagi o‘zgarishlarni ertaga emas, bugun ko‘rar edik. Ha, oddiy insoniy fazilatlar ham bugun qahramonlik darajasiga ko‘tarilayozdi. Hozir birov birovga yaxshilik qilsa, yordam qo‘lini cho‘zsa, og‘irini yengil qilsa, buni manfaat, moddiy rag‘bat evazi deb qabul qilish oddiy holga aylangan.

Axir biz unday xalq, millat emasdik-ku? Beparvolik, loqaydlik, “sen menga tegma, men senga tegmayman” qabilidagi bunday noqis fe’llar qachon bizga chirmashib ulgurdi? Yopishganda ham tiynatimizga singib ketdi. Bu illatlar barham topishi uchun nimalar qilish kerak? Ushbu savollar masalaning mohiyatiga chuqurroq kirishni talab etadi.

To‘g‘ri, bugun ushbu masala yechimi uchun millatimiz oydinlari ozmi-ko‘pmi chora izlamoqda, mamlakatimizda amaliy harakatlarga kirishilgan. Eng yuqori darajada qabul qilingan dasturlarda ayni maqsadga ko‘plab bandlar bag‘ishlandi, maxsus loyihalar ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari o‘tgan yil dekabrda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘ularini kuchaytirish masalasini ta’kidlagani ham bejiz emas, albatta.

Vaziyatga faqat qora ko‘zoynak orqasidan nazar tashlash ham to‘g‘ri emas. Xolis tahlil qilsak, yutuqlar salmoqli, natijalar talaygina. Prezidentimizning 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridan so‘ng aksariyat yo‘nalishlarda tub burilish yuz berdi. Keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgardi. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishda ezgu va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oya ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu boradagi muhim ishlarga qaramay, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan qator tizimli muammolar saqlanib qolayotgani yuqori doiralarda tan olinyapti. Gap ana shu bo‘shliqni to‘ldirish ustida ketyapti.

Xususan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmayotgani, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmayotgani ham bor gap.

“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror bilan bugun jamiyatimizdagi muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsad qilingan.

Buning uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olingan. Jumladan, jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, aholining internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turi, noshirlik-matbaa

mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga erishish masalasiga katta e’tibor berilgan.

Bugun ommaviy axborot vositalari qatori ijtimoiy tarmoqlar ham faollashdi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishga qodir mazkur tarmoqlar orqali kirib kelayotgan turli axborot jamiyatimizdagi ayrim yoshlar ongini zaharlayotgani, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan yigit-qizlarning giyohvandlikka ruju qo‘yishi, qimor o‘yinlariga aralashishi, radikalizm, ekstremizm va boshqa illatlar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar sodir etayotgani, bunday sharoitda yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, zararli illat va yot g‘oyalar ta’siridan asrash muhimligi allaqachon oydinlashib ulgurdi.

Ko‘rib turibmiz: olamshumul muvaffaqiyatlar, katta va avvallari hech bo‘lmagan yutuqlar, natijalar haqidagi ma’lumot xabarlar tasmasidan bir zumda o‘tib ketadi. Ammo biror nojo‘ya harakat, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchilik, biror mashhur siyosatchi yoki san’atkorning noo‘rin harakati yoxud kontekstdan yulib olingan biror iborasi haqida dunyoga doston qilinadi. Masalaning tub mohiyatini ochib berish, sabablarini tahlil qilish, bu kabi vaziyatlar qayta sodir bo‘lmasligi uchun nimalar qilish lozimligi borasidagi mulohazalar o‘rniga ushbu ko‘ngilsiz holatlar haqida tomoq yirtar darajada jar solinadi. Bundan maqsad nima? Barqarorlikka, osoyishtalikka raxna, odamlar ko‘ngliga qutqu solishmi?

Masalan, yoz oylarida bir guruh ko‘ngilli faol yigit-qizlar ayrim yurtdoshlarimizning tabiatning soya-salqin, tog‘li hududlarda hordiq chiqarib, odatda ekologik madaniyat yetishmasligi bois, qoldirib ketadigan, har yoqqa otib yuboradigan turli chiqindilarni tozalash aksiyasini o‘tkazdi. Ular hech kim majburlamasa-da, o‘zini shu jamiyat rivoji va tabiat musaffoligini asrashga daxldor deb his qildi.

Afsuski, bo‘lar-bo‘lmas gap-so‘zlarni bayroq qiladigan ayrim saytlar, blogerlar bu xayrli tashabbusga yetarlicha ahamiyat bermadi, qo‘llab-quvvatlamadi, yoshlarning fidoyiligi haqida lom-mim demadi. Biroq qaysidir vazir yoki soha rahbarining bir oz qizishib, aslida, mavzu bo‘yicha kuyinchaklik bilan aytgan gaplarini oylab muhokama qildi. Turli izoh, talqin va pichinglar orqali ommada teskari tasavvur uyg‘otishga urinishlar kuzatildi.

Joriy yil 27-oktabrdagi saylovda jamiyat va davlat ishlariga o‘zini daxldor bilgan 541 yoshlar yetakchisi o‘z nomzodini ilgari surdi. Natijada ulardan 2 nafari viloyat hamda 117 nafari tuman va shahar kengashlari deputatligiga saylandi. Yoshlar yetakchilarining bunday yutuqlarga erishishi ularga bildirilgan ishonch va imkoniyat natijasi bo‘lsa-da, bunga o‘sha “faol” medialar yetarlicha urg‘u bermadi.

Bu voqea ham bir necha o‘smirning avtomobilda yuqori tezlikda harakatlanib, o‘zini tasvirga olib, ijtimoiy tarmoqlarga joylagani kabi ayrim voqealar soyasida qolib ketdi. Tarmoqlar yoppasiga shu kabi lavhalar bilan to‘ldi. Kuzatuvchilar ularni qoralash, ayrim o‘rinlarda oqlash bilan ovora bo‘ldi.

Tarmoqlarning kuchi shundaki, voqealar qanday rakursda targ‘ib qilinsa, tafakkurga shu shaklda singib boradi. Atrofimizdagi hodisalarga xotirjamlik va loqaydlik bilan emas, balki hushyorlik bilan qarash zarur. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha — qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi”.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Toshoyna

QALB VA RUH TARBIYASIDA

BURCHIMIZNI UNUTIB QO‘YMAYLIK

Oila — jamiyatning boshlang‘ich bo‘g‘ini va asosi. U faqat erkak va ayolning munosabati bilan cheklanib qolmaydi. Farzand ota-onaning davomchisi, millatning farovon kelajagini ta’minlaydigan, obro‘-e’tibori va nomusini himoya qiladigan qalqondir. O‘zbek jamiyatida oila qadriyat darajasiga chiqqan. Sababi bolaning axloqiy, jismoniy, ma’naviy jihatdan shakllanishida, shaxs sifatida tarbiya topishida oilaning o‘rni katta. Har qadamda insonning ma’naviy o‘lchovlariga putur yetkazilayotgan, egoizm tushunchasi bilan to‘yinayotgan, turli yengil-yelpi qarashlar odamlarning ongu ruhiga singayotgan vaqtda tarbiyaning ahamiyati ortmoqda. Chunki tarbiyaga befarq qaragan, qadriyatlardan uzoqlashgan oila va jamiyatlarning tanazzulga yuz tutayotgani ham ayni haqiqat.

Ha, odamning tafakkur tarzi oilada shakllanadi. Abdurauf Fitrat “Oila” asarida axloq oilaning tayanch ustuni bo‘lishi kerakligiga urg‘u beradi. Xo‘sh, bugun o‘zbek oilalarida axloqning o‘rni qanday?

Jamiyatimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni kuzata turib, biz e’zozlagan oila atalmish qo‘rg‘onning devorlari darz ketayotgandek tuyulyapti. Bugun bachkanalik va bema’nilik millatimiz qoniga singib, ayniqsa, yoshlarni o‘z yo‘rig‘iga boshlab borayotgandek. Albatta, barchaga birdek hukm o‘qiy olmaymiz.

Ancha vaqtdan beri to‘ylardagi isrofgarliklar, bemaqsad uyushtirilayotgan tadbiru udumlar haqida ko‘p aytiladi. Balki kimlar uchundir, qayerlardadir bu munozaralar natija bergandir. Ammo umumning hayotida hali-hamon bu hashamdorlik chegarasi ko‘rinmayapti. Qaytaga unga qo‘shqanot bo‘lib yangi illatlar urchib bormoqda. Erkinlik niqobi ostida ma’naviy burchimizni unutib, bizga hamma narsa mumkin degan odamlar toifasi shakllanmoqda. “Hamma narsa mumkin” degan chegaradan razolat va johillik, bachkanalik va bema’nilik, kerak bo‘lsa, xudosizlik boshlanadi”, degan edi taniqli shoir Eshqobil Shukur.

Yaqinda bir ma’rakaga bordik. Tanish akamizning yigirma yoshli o‘g‘li bu olamni tark etibdi. Albatta, hukm Yaratgandan, ammo unga o‘zimiz, biz ko‘z yumayotgan, bilib-bilmay ergashayotgan illatlar sababchidek. Xullas, qishloqda to‘y bo‘lgan. Kuyovjo‘ralar kelishib, qatorga mashina qo‘shgan. Yosh-yalangdan biri otasining mashinasini haydab chiqqan. Yosh, qoni qaynoq emasmi, tez haydagan. Oqibatda esa… To‘y bir kunda o‘tib ketdi. Lekin ota-

onaning undan qolgan g‘ami umrbod arimaydi.

Bu yerda aybdorni qoziga olib bormoqchi emasmiz. Faqat dunyo yangi taraqqiyot bosqichiga kirayotgan, ilm-fan eng katta qurolga aylanib borayotgan davrda yoshlar orasida hayotga yengil-yelpi qarash kuchayib borayotgani achinarli hol. Ularda o‘zini nazorat qilolmaslik, kim qayoqqa boshlasa, o‘sha tomon ketayotgan, bir muddat to‘xtab, yo‘lning oqibatini o‘ylab ko‘rmayotganlar soni oshib borayotganini ko‘rib, ko‘ngilda xavotir uyg‘onadi.

Taassufki, farzandlaridagi bu o‘zgarishlarni erkalikka yo‘yib, “Otasining davrida yurib qolsin-da”, “Yoshligida davru davron sursin”, deyayotganlar ham yo‘q emas. Tog‘ni ursa talqon qiladigan o‘smirlarning davraning o‘rtasida har ko‘yga tushayotganini ko‘rib, ichingdan zil ketasan kishi. Erta-indin ular ham qaysidir oilaga boshliq bo‘ladi. Farzand tarbiyalaydi. Har holda butun umr otasiga suyanib yashamasligi aniq.

Yaqinda bir maktabda o‘tkazilgan tadbirga bordim. Safdoshlarimizdan biri uchirma bo‘lish arafasidagi yoshlardan orzulari haqida so‘radi. Biz, albatta, ulardan IT mutaxassisi, jarroh va yana biz bilmagan bir qancha kasblar egasi bo‘lishni eshitishni kutgandik. Ularning aksariyati xorijga borib ishlashini aytdi. Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich, deyishadi. O‘zga yurtda ishlayotgan ko‘p yurtdoshlarimiz kasb-kori ortidan non topib, farzandlarini nafaqat yurtimizda, balki xorijiy davlatlarda o‘qitayotir. Chekka hududlardagi qishloqlarni kuzata turib, odamlar paxsa uylar o‘rniga allaqachon ikki qavatli, hashamatli imoratlar qurayotganiga guvoh bo‘lasiz. Insonlarning yashash tarzida o‘zgarish katta. Ayniqsa, davlatimiz tomonidan xorijda ishlaydigan yurtdoshlarimizga yaratilayotgan qulayliklarni e’tirof etmasdan iloj yo‘q. Chet elda ishlab, ish haqini ololmagan qancha yurtdoshlarimizning haq-huquqlari himoya qilinmoqda. Bu yaxshi, albatta. Biroq masalaning ikkinchi jihati ham bor.

Bir kuni kelib, hozir ulg‘ayayotgan qorako‘zlar ham xuddi shunday uylar bunyod etadi. Mashina oladi. Nimaning evaziga? Bu ancha og‘riqli masala. Otasi, akasi kabi o‘zga yurtda ishlab, albatta. Bir o‘rtog‘im qariyb 5-6 yildan buyon xorijda ishlab yuribdi. Katta uy ko‘taryapti. Otasi og‘ir dardga chalinib, to‘shakka mixlangan. Do‘stim qaytaman desa, ustalarning haqini to‘lash, uyni odam yashaydigan holatga keltirish uchun yana bir-ikki yil ishlashi kerak. Ungacha otasi bor bo‘ladimi yoki yo‘q, Yaratganga ayon. Yoki ota tarbiyasi, mehrini ko‘rmay katta bo‘layotgan bolalarining oldidagi qarzini qanday to‘laydi? Chet elda ishlayotgan otalar farzandlari oldidagi ma’naviy burchini unutib qo‘ymadimikan?

Insonning shaxs bo‘lib shakllanishida tarbiya bilan bir qatorda ta’lim ham muhim. Tarbiya insoniy xislatlarni singdiradi. Ilm esa odamning jamiyatda munosib o‘rin topishiga hissa qo‘shadi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faollari va bir guruh ma’rifat targ‘ibotchilarining O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatida bunday so‘zlar bor: “Bugun farzandlarimizga ajratgan vaqtimiz, mehrimiz va e’tiborimiz ertaga oilamiz va jamiyatimizga hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan insoniy resurs va kapital bo‘lib qaytadi”.

Xo‘sh, bugun biz farzandlarimizga qanchalik e’tibor qaratyapmiz? Aksariyat ota-onalar farzandni dunyoga keltirishu ustini butlashnigina ular oldidagi burchi deb biladi. Aslida, bolaning qalbi va ruhini tarbiyalash kerakligi haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi. Olimlarning ta’kidlashicha, hali kelajakdagi kasblarning 60 foizi kashf etilmagan. Bu esa maqsadini so‘raganda yer chizadigan yoki ijtimoiy tarmoqlarga sho‘ng‘ib, maqsadsizlik og‘ushida yurgan yoki o‘qituvchini urish, behurmat qilish ortidan safdoshlari orasida o‘zining kimligini ko‘rsatishga harakat qilayotgan yoki hashamdorlik, shoshma-shosharlik bilan bir kunlik to‘yning badalini og‘ir o‘tayotgan yoshlarga ogohlik qo‘ng‘irog‘i emasmikan?

Qars ikki qo‘ldan chiqadi. Ba’zan atrofni kuzata turib, bu illatlar millatimizning qon-qoniga singib ketgan ko‘zi ochlikning mevasimikan deysiz kishi. Ikki-uch qavatli uyi, mashinasi, biznesi bo‘laturib, farzandining repetitori uchun 400-500 ming so‘m berishni behuda pul sarflash deb biladiganlar ham yo‘q emas.

Davlatimiz rahbari aytganidek: “Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi”. Bu dunyoga kelgan har bir insonning zimmasida burch va mas’uliyati bo‘ladi. Bu mas’uliyat ortida jamiyat farovonligi, millat taqdiri yotadi. Jamiyat rivojlanib borishi, unda sog‘lom muhit shakllanishi nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ma’naviy yuksalishga ham bog‘liq. Ma’naviyatning asosi esa ilm va tafakkurda.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4612.
39932 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 00:30 Topshirildi — 01:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05